1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining deputatlari Z. Mavlonov, D. Kamalova, A. Buriyev, R. Sabirov, S. Ubaydullayeva, U. Kabulov

va O. Yuldashev tomonidan 2025-yil 9-sentabrda kiritilgan «Fuqarolarning mehnat huquqlari kafolatlari kuchaytirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida»gi QL–131-sonli O‘zbekiston Respublikasi qonuni loyihasi birinchi o‘qishda qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Korrupsiyaga qarshi kurashish va sud-huquq masalalari qo‘mitasi kelib tushgan tuzatishlarni hisobga olgan holda mazkur qonun loyihasini maromiga yetkazsin va ikkinchi o‘qishda Qonunchilik palatasi muhokamasiga kiritсин.

3. Ushbu Qaror qabul qilingan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

**O‘zbekiston Respublikasi
Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasining
Spikeri**

N. ISMOILOV

Toshkent shahri,
2025-yil 10-sentabr,
№ 1281–V.

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY MAJLISI
QONUNCHILIK PALATASINING
QARORI**

1072 «Fuqarolarning mehnat huquqlari kafolatlari kuchaytirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida»gi QL–131-sonli O‘zbekiston Respublikasi qonuni loyihasi haqida

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi
QAROR QILADI:

1. «Fuqarolarning mehnat huquqlari kafolatlari kuchaytirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida»gi QL–131-sonli O‘zbekiston Respublikasi qonuni loyihasi ikkinchi o‘qishda qabul qilinsin.

2. Ushbu Qaror qabul qilingan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

**O‘zbekiston Respublikasi
Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasining
Spikeri**

N. ISMOILOV

Toshkent shahri,
2025-yil 10-sentabr,
№ 1282–V.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY MAJLISI
QONUNCHILIK PALATASINING
QARORI

1073 QL–129 va QL–131-sonli O‘zbekiston Respublikasi
qonunlari loyihalarini birlashtirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi
QAROR QILADI:

1. Ikkinchi o‘qishda qabul qilingan «O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksiga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida»gi QL–129-sonli O‘zbekiston Respublikasi qonuni loyihasi hamda «Fuqarolarning mehnat huquqlari kafolatlari kuchaytirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida»gi QL–131-sonli O‘zbekiston Respublikasi qonuni loyihasi «Fuqarolarning mehnat huquqlari kafolatlari kuchaytirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida» degan yangi nom bilan bitta qonun loyihasiga birlashtirilsin.

2. Ushbu Qaror qabul qilingan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

**O‘zbekiston Respublikasi
Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasining
Spikeri**

N. ISMOILOV

Toshkent shahri,
2025-yil 10-sentabr,
№ 1283–V.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY MAJLISI
QONUNCHILIK PALATASINING
QARORI

1074 «Fuqarolarning mehnat huquqlari kafolatlari kuchaytirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni haqida

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi
QAROR QILADI:

1. «Fuqarolarning mehnat huquqlari kafolatlari kuchaytirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilinsin.

2. Mazkur Qonun O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatiga yuborilsin.

3. Ushbu Qaror qabul qilingan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

**O‘zbekiston Respublikasi
Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasining
Spikeri**

N. ISMOILOV

Toshkent shahri,
2025-yil 10-sentabr,
№ 1284–V.

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY MAJLISI
QONUNCHILIK PALATASINING
QARORI**

**1075 O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi
majlisining kun tartibi to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi
QAROR QILADI:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi majlisining quyidagi kun tartibi tasdiqlansin:

1. O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi milliy ma‘ruzasi haqida.

2. «Bolalarni zo‘ravonlikdan himoya qilish tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida»gi QL–35-sonli O‘zbekiston Respublikasi qonuni loyihasi haqida (ikkinchi o‘qish).

3. «O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga O‘zbekistonda islomiy bank faoliyatini joriy qilishga qaratilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida»gi QL–130-sonli O‘zbekiston Respublikasi qonuni loyihasi haqida (birinchi o‘qish).

4. «Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunini qayta ko‘rib chiqish haqida.

5. «Aholining keng qatlamlari, shu jumladan, jismoniy imkoniyati cheklangan va nogironligi bo‘lgan shaxslar orasida jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha ommaviy tadbirlarni tashkil etish borasida amalga oshirilayotgan ishlar to‘g‘ri-

sida»gi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining parlament so‘roviga O‘zbekiston Respublikasi sport vaziri A. Ikramovning javobi haqida.

6. O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi direktori A. Sa’dullayevga «Yoshlarning bo‘sh vaqtdan unumli foydalanishini hamda ularni kasb-hunarga o‘qitish orqali ularning bandligini ta‘minlashga qaratilgan chora-tadbirlarning amalga oshirilish holati to‘g‘risida» O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining parlament so‘rovini yuborish haqida.

7. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining ayrim qo‘mitalari tarkibiga o‘zgarishlar kiritish to‘g‘risida.

8. M.Sh. Istamovni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Agrar va suv xo‘jaligi masalalari qo‘mitasining a‘zosi lavozimidan ozod etish to‘g‘risida.

9. E.Sh. Hayitovni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Xalqaro ishlar, mudofaa va xavfsizlik masalalari qo‘mitasining a‘zosi lavozimidan ozod etish to‘g‘risida.

**O‘zbekiston Respublikasi
Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasi
Spikerining o‘rinbosari**

R. XAKIMOV

Toshkent shahri,
2025-yil 16-sentabr,
№ 1291–V.

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY MAJLISI
QONUNCHILIK PALATASINING
QARORI**

1076 O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi milliy ma‘ruzasi haqida

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi (bundan buyon matnda Agentlik deb yuritiladi) direktorining O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi milliy ma‘ruzasi haqidagi axborotini eshitib, 2024-yilda mamlakatda korrupsiyaga qarshi kurashish borasida muayyan ishlar amalga oshirilganligini qayd etadi.

Korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashishning huquqiy va institutsional asoslari takomillashtirilib, jamiyatda korrupsiya illatiga nisbatan murosasiz muhitni shakllantirishga qaratilgan tizimli islohotlar davom ettirildi.

Korrupsiyaning oldini olish borasidagi ishlar natijadorligi O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashining joriy yil 5-mart kunidagi kengaytirilgan yig'ilishida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev boshchiligidagi muhokama qilinish, ustuvor vazifalar belgilab berildi.

2024-yilda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarni huquqiy jihatdan ta'minlashga qaratilgan 10 dan ortiq normativ-huquqiy hujjat qabul qilindi.

Xususan, «Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilinish, manfaatlar to'qnashuvining oldini olishning huquqiy asoslari yaratildi.

Agentlik tomonidan 2024-yil davomida 221,3 mlrd. so'mlik 111 ta davlat xaridida manfaatlar to'qnashuvi holatlariga yo'l qo'yilganligi yuzasidan vazirliklarga va idoralarga 57 ta taqdimnoma, huquqni muhofaza qiluvchi organlarga 54 ta so'rov kiritilib, 75 ta holatda jami 33,6 mlrd. so'mlik xaridlarning bekor qilinishi ta'minlandi.

Davlat xaridlari maxsus axborot portalida tovarlar (ishlar, xizmatlar) narxlarining jamoatchilik uchun shaffofligi ta'minlandi, davlat organlari va tashkilotlarida ochiqlikni ta'minlash bo'yicha masofaviy monitoring qilish tartibi, davlat xaridlarida Yagona yetkazib beruvchilar reyestriga kiritish bo'yicha davlat xizmatlarini ko'rsatishning ma'muriy reglamenti tasdiqlandi, davlat organlari va tashkilotlarining ochiqlikka mas'ul xodimlarini o'qitishga mo'ljallangan «E-learning» ta'lim platformasi (data.anticorruption.uz) ishga tushirildi.

Davlat organlari va tashkilotlarining inson resurslarini boshqarishga oid faoliyatini raqamlashtirish axborot tizimi (hrm.argos.uz) yo'lga qo'yildi.

2024-yilda davlat boshqaruvida byurokrtiyani qisqartirish, davlat organlari faoliyatini raqamlashtirish orqali korrupsiyaga imkon berayotgan shart-sharoitlarni bartaraf etish, shuningdek davlat xizmatlarini soddalashtirish bo'yicha ishlar davom ettirildi.

O'zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali aholiga ko'rsatiladigan xizmatlari soni 710 tadan oshgan.

Jumladan, pensiya tayinlash uchun ariza berish, tibbiy ma'lumotnoma olish, kam ta'minlangan oilalarga bolalar nafaqasi va moddiy yordam tayinlanishi uchun ariza berish, nafaqa tayinlash, mehmonxona qurish uchun subsidiya olish, talabalar uchun ta'lim krediti olish, davlat umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlarga sertifikatlar berish va boshqa xizmatlarning elektron shaklga o'tkazilishi byurokrtiyani va korrupsiya omillarini kamaytirishga xizmat qilmoqda.

Aholining va davlat xizmatchilarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi bilimni uzluksiz oshirib borish maqsadida «Korrupsiyaga qarshi kurashish virtual akademiyasi» elektron platformasi ishga tushirildi.

Davlat organlari mansabdor shaxslarining sudlar tomonidan haqiqiy emas deb topilgan qonunga xilof qarorlari to'g'risida jamoatchilikni xabardor qilish tizimi yaratilib, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining rasmiy veb-sahifasida davlat

organlarining va ular mansabdor shaxslarining qonunga xilof qarorlarini haqiqiy emas deb topish haqidagi sud qarorlarini ochiq e'lon qilib borish tartibi yo'lga qo'yildi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish borasida amalga oshirilgan ijobiy ishlar bilan bir qatorda ushbu sohada to'liq foydalanilmayotgan imkoniyatlar va e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan masalalar ham mavjud.

Manfaatlar to'qnashuvi, davlat xaridlari, davlat organlarining ochiqligi hamda budjet mablag'laridan samarali foydalanish bo'yicha korrupsiyaviy huquqbuzarliklarning sodir etilishiga imkon berayotgan shart-sharoitlar to'liq bartaraf etilmayapti.

Huquqni muhofaza qiluvchi organlar ham aksariyat hollarda korrupsiyaning oldini olish bilan emas, balki uning oqibatlariga qarshi kurashish bilan shug'ullanib kelmoqda.

2024-yilda sudlar tomonidan respublika bo'yicha jami 4 649 ta jinoyat ishi bo'yicha 7 354 nafar shaxs korrupsiyaga oid jinoyatlar uchun jinoiy javobgarlikka tortilgan. Ushbu jinoyatlar oqibatida davlat manfaatlariga jami 2 trln. 812 mlrd. so'm miqdorida zarar yetkazilgan.

«Normativ-huquqiy hujjatlarning va ular loyihalarining korrupsiyaga qarshi ekspertizasi to'g'risida»dagi O'zbekiston Respublikasi Qonunida belgilangan talablar bajarilmay qolmoqda.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi milliy ma'ruzada vazirliklar va idoralarning 2 350 ta normativ-huquqiy hujjat loyihasi korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazilib, ularning 222 tasida, ya'ni 11 foizida korrupsiyani keltirib chiqaruvchi omillar aniqlangan.

Shuningdek O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi tomonidan o'rganishlar davomida 10 dan ortiq vazirlik va idoralar tomonidan «Normativ-huquqiy hujjatlarning va ular loyihalarining korrupsiyaga qarshi ekspertizasi to'g'risida»dagi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 9-moddasi talablari bajarilmay, ularning faoliyat sohalariga doir normativ-huquqiy hujjatlar korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazilmaganligi ma'lum bo'ldi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi ayrim reyting indekslarida O'zbekistonning o'rni o'tgan yilga nisbatan pasaygan, «World Justice Project» tashkilotining Huquq ustuvorligi indeksida (Rule of law) O'zbekiston reytingi 142 ta davlat orasida 49 ball to'plab, 83 o'rinni egallagan va o'tgan yilga nisbatan 5 pog'onaga pasaygan.

Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash natijalariga ko'ra, baholashdan o'tkazilgan 102 ta davlat tashkilotidan 8 tasining faoliyati «qoniqsiz» deb baholangan.

Shuningdek davlat organlari va tashkilotlarida ochiqlik bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarning samaradorligi va natijadorligini baholashga qaratilgan Ochiqlik indeksi natijasiga ko'ra, 2024-yil yakuni bo'yicha baholashdan o'tkazilgan 98 ta davlat organi va tashkilotidan 13 tasining faoliyati «qizil» toifada baholangan.

Agentlik davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risidagi qonunchilikni buzish holatlari bo'yicha ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risida bayonnoma tuzish huquqidan samarali foydalanmagan. Masalan, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risidagi qonun-

chilikni buzish holatlari yuzasidan faqatgina 5 nafar shaxsga nisbatan O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 215⁷-moddasi asosida ma'muriy javobgarlik choralari ko'rilgan, xolos.

Agentlikka korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar bo'yicha ma'muriy surishtiruvlar o'tkazish, korrupsiyaga oid jinoyatlar sodir etilishining sabablarini va bunga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, korrupsiyaning holatini va tendensiyalarini tizimli ravishda tahlil qilish imkoniyatini ta'minlash maqsadida qonunchilikka, shu jumladan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksiga muvofiq jinoyat ishlari materiallarini o'rganishga doir vakolatlarni amalga oshirishning huquqiy asoslarini ishlab chiqish borasidagi ishlar yakuniga yetkazilmasdan qolmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining 2024-yil 10-sentabrdagi 4821–IV-sonli Qarori bilan Agentlikka korrupsiyaga qarshi kurashish va uning oldini olish borasidagi ishlar samaradorligini ta'minlash yuzasidan berilgan ayrim tavsiyalar amalga oshirilmasdan qolmoqda.

Yuqorida bayon etilganlarni inobatga olib, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 93-moddasiga, «Parlament nazorati to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 82-moddasiga va «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Reglamenti to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 262-moddasiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi **QAROR QILADI**:

1. O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining O'zbekiston Respublikasida Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi milliy ma'ruzasi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Agentlikka:

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha 2025–2026-yillarga mo'ljallangan davlat dasturining tasdiqlanishi yuzasidan zarur choralar ko'rish;

hududlarda aholini qiynab kelayotgan maishiy va tizimli korrupsiyaviy muammolarni aniqlash va bartaraf etish yuzasidan choralar ishlab chiqish, shu jumladan tegishli qonunlarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish zarurati yuzasidan takliflar kiritib borish;

davlat organlari va tashkilotlarining korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tizimi («komplayens nazorat») faoliyatini muvofiqlashtirish va uslubiy jihatdan ta'minlash, ular xodimlarini stajirovka va attestatsiyadan o'tkazish hamda ularning malakasini oshirish choralari yanada kuchaytirish;

yirik investitsiya loyihalarida korrupsiyaga qarshi xalqaro standartlarni joriy etish hamda auksion shartlarini raqobatbardoshlik ekspertizasidan o'tkazish tartibi va mexanizmlarining huquqiy asoslarini yaratish;

korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida fuqarolik jamiyati institutlarining ishtirokini yanada kengaytirish va ilmiy tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlash choralari kuchaytirish;

adliya organlari bilan hamkorlikda vazirliklar va idoralar tomonidan o'z faoliyat sohalarini tartibga soladigan amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarning korrupsiyaga qarshi ekspertizasining o'tkazilish holatini monitoring qilib, «Normativ-huquqiy hujjatlarning va ular loyihalarining korrupsiyaga qarshi ekspertizasi to'g'ri-

sida»dagi O'zbekiston Respublikasi Qonunining ijrosini ta'minlamasdan kelayotgan vazirliklar va idoralarning bu boradagi mas'uliyatini oshirish choralari yuzasidan takliflar ishlab chiqish;

Qoraqalpog'iston Respublikasida, viloyatlarda va Toshkent shahrida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha hududiy kengashlar a'zolarining bilim va ko'nikmalarini muntazam ravishda oshirib borish hamda ularning maishiy va tizimli korrupsiyaviy omillarga qarshi kurashish borasidagi ishlari samaradorligini oshirish choralarini ko'rish;

korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash natijalariga ko'ra faoliyati samaradorligi «qoniqarsiz» deb topilgan davlat organlari va tashkilotlarida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish choralarini ko'rish;

sodir etilgan korrupsiyaga oid jinoyatlarni tahlil qilish hamda mazkur jinoyatlar ko'rsatkichi oshgan davlat organlari va tashkilotlari bilan kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlarni belgilash;

O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha milliy strategiyani qabul qilish ishlarini yakunga yetkazish choralarini ko'rish tavsiya etilsin.

3. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining qo'mitalari parlament nazoratini amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi milliy ma'ruzada qayd etilgan ma'lumotlardan o'z faoliyat yo'nalishlarining o'ziga xos jihatlarni inobatga olgan holda foydalansin.

4. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Korrupsiyaga qarshi kurashish va sud-huquq masalalari qo'mitasi korrupsiya uchun javobgarlik muqarrarligini ta'minlashga, yoshlarni korrupsiyaga nisbatan muhosasiz bo'lish muhitida tarbiyalashga, korrupsiya holatlari haqida xabar bergan shaxslar himoyasini kuchaytirishga qaratilgan qonun loyihasini qisqa muddatda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining muhokamasiga kiritish choralarini ko'rsin.

5. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi Fuqarolik jamiyati institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondi mablag'larini boshqarish bo'yicha parlament komissiyasiga:

nodavlat notijorat tashkilotlarining korrupsiyaning oldini olish borasidagi rolini oshirish mavzulariga davlat grantiga va ijtimoiy buyurtmaga tanlovlar e'lon qilishda alohida e'tibor qaratish;

fuqarolik jamiyati institutlarining jamiyatda korrupsiya illatiga muhosasiz munosabatni shakllantirishga qaratilgan maqsadli grantlarning mavzulari va yo'nalishlarini ishlab chiqishda Agentlikka ko'maklashish tavsiya etilsin.

6. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasidagi siyosiy partiyalar fraksiyalariga, Korrupsiyaga qarshi kurashish va sud-huquq masalalari qo'mitasiga o'tkazilayotgan parlament nazorati tadbirlari va deputatlarning saylovchilar bilan uchrashuvlari yakunlaridan kelib chiqqan holda, korrupsiya holatlarini bartaraf etish bo'yicha tegishli vazirliklar va idoralarga takliflar kiritib borish tavsiya etilsin.

7. Ushbu Qarorning ijrosini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Spikerining o'rinbosari M. Xodjayeva zimmasiga yuklatilsin.

8. Ushbu Qaror qabul qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

O'zbekiston Respublikasi
Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasi
Spikerining o'rinbosari

R. XAKIMOV

Toshkent shahri,
2025-yil 16-sentabr,
№ 1292–V.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY MAJLISI
QONUNCHILIK PALATASINING
QARORI

1077 «Bolalarni zo'ravonlikdan himoya qilish tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi QL–35-sonli O'zbekiston Respublikasi qonuni loyihasi haqida

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi
QAROR QILADI:

1. «Bolalarni zo'ravonlikdan himoya qilish tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi QL–35-sonli O'zbekiston Respublikasi qonuni loyihasi ikkinchi o'qishda qabul qilinsin.

2. Ushbu Qaror qabul qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

O'zbekiston Respublikasi
Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasi
Spikerining o'rinbosari

R. XAKIMOV

Toshkent shahri,
2025-yil 16-sentabr,
№ 1293–V.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY MAJLISI
QONUNCHILIK PALATASINING
QARORI

1078 «Bolalarni zo‘ravonlikdan himoya qilish tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni haqida

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi
QAROR QILADI:

1. «Bolalarni zo‘ravonlikdan himoya qilish tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilinsin.
2. Mazkur Qonun O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatiga yuborilsin.
3. Ushbu Qaror qabul qilingan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

**O‘zbekiston Respublikasi
Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasi
Spikerining o‘rinbosari**

R. XAKIMOV

Toshkent shahri,
2025-yil 16-sentabr,
№ 1294–V.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY MAJLISI
QONUNCHILIK PALATASINING
QARORI

1079 «O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga O‘zbekistonda islomiy bank faoliyatini joriy qilishga qaratilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida»gi QL–130-sonli O‘zbekiston Respublikasi qonuni loyihasi haqida

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi
QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2025-yil

8-sentabrda kiritilgan «O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga O‘zbekistonda islomiy bank faoliyatini joriy qilishga qaratilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida»gi QL–130-sonli O‘zbekiston Respublikasi qonuni loyihasi birinchi o‘qishda qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Budjet va iqtisodiy masalalar qo‘mitasi kelib tushgan tuzatishlarni hisobga olgan holda mazkur qonun loyihasini ikki oy ichida maromiga yetkazsin va ikkinchi o‘qishda Qonunchilik palatasi muhokamasiga kiritсин.

3. Ushbu Qaror qabul qilingan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

O‘zbekiston Respublikasi
Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasi
Spikerining o‘rinbosari

R. XAKIMOV

Toshkent shahri,
2025-yil 16-sentabr,
№ 1295–V.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY MAJLISI
QONUNCHILIK PALATASINING
QARORI

1080 «Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunini qayta ko‘rib chiqish haqida

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi tomonidan 2024-yil 15-oktabrda qabul qilingan, 2025-yil 23-yanvarda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tomonidan ma‘qullangan va 2025-yil 12-mayda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qaytarilgan «Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunini qayta ko‘rib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Reglamenti 168-moddasining yettinchi qismiga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi **QAROR QILADI:**

1. «Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining bundan buyongi ko‘rib chiqishidan olib tashlansin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining 2025-yil 3-iyunda qabul qilingan «Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunini qayta ko‘rib chiqish haqida»gi

931–V-sonli Qarori (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2025-yil, № 6, 738-modda) bekor qilinsin.

3. Ushbu Qaror ma’lumot uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatiga yuborilsin.

4. Ushbu Qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

**O‘zbekiston Respublikasi
Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasi
Spikerining o‘rinbosari**

R. XAKIMOV

Toshkent shahri,
2025-yil 16-sentabr,
№ 1296–V.

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY MAJLISI
QONUNCHILIK PALATASINING
QARORI**

1081 «Aholining keng qatlamlari, shu jumladan, jismoniy imkoniyati cheklangan va nogironligi bo‘lgan shaxslar orasida jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha ommaviy tadbirlarni tashkil etish borasida amalga oshirilayotgan ishlar to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining parlament so‘roviga O‘zbekiston Respublikasi sport vaziri A. Ikramovning javobi haqida

«Parlament nazorati to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 14-moddasiga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi **QAROR QILADI:**

1. «Aholining keng qatlamlari, shu jumladan, jismoniy imkoniyati cheklangan va nogironligi bo‘lgan shaxslar orasida jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha ommaviy tadbirlarni tashkil etish borasida amalga oshirilayotgan ishlar to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining parlament so‘roviga O‘zbekiston Respublikasi sport vaziri A. Ikramov tomonidan yuborilgan yozma javob ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Ushbu Qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

**O‘zbekiston Respublikasi
Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasi
Spikerining o‘rinbosari**

R. XAKIMOV

Toshkent shahri,
2025-yil 16-sentabr,
№ 1297–V.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY MAJLISI
QONUNCHILIK PALATASINING
QARORI

1082 O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi direktori A. Sa’dullayevga «Yoshlarning bo‘sh vaqtdan unumli foydalanishini hamda ularni kasb-hunarga o‘qitish orqali ularning bandligini ta‘minlashga qaratilgan chora-tadbirlarning amalga oshirilish holati to‘g‘risida» O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining parlament so‘rovini yuborish haqida

«O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy Qonunining 12-moddasiga va «Parlament nazorati to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 14-moddasiga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi **QAROR QILADI:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasidagi O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasi fraksiyasi hamda Demokratik institutlar va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish masalalari qo‘mitasining O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi direktori A. Sa’dullayevga «Yoshlarning bo‘sh vaqtdan unumli foydalanishini hamda ularni kasb-hunarga o‘qitish orqali ularning bandligini ta‘minlashga qaratilgan chora-tadbirlarning amalga oshirilish holati to‘g‘risida» O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining parlament so‘rovini yuborish haqidagi taklifi qabul qilinsin.

2. Mazkur Qaror va parlament so‘rovi O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi direktori A. Sa’dullayevga yuborilsin.

3. Ushbu Qaror qabul qilingan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

**O‘zbekiston Respublikasi
Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasi
Spikerining o‘rinbosari**

R. XAKIMOV

Toshkent shahri,
2025-yil 16-sentabr,
№ 1298–V.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY MAJLISI
QONUNCHILIK PALATASINING
QARORI

1083 O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining ayrim qo‘mitalari tarkibiga o‘zgarishlar kiritish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasidagi siyosiy partiyalar fraksiyalari rahbarlarining takliflariga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi **QAROR QILADI:**

1. **Achilov** Jamol Alisherovich (yagona saylov okrugidan O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasidan saylangan deputat) O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Budget va iqtisodiy masalalar qo‘mitasi raisining o‘rinbosari etib saylansin hamda shu munosabat bilan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Mehnat, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy masalalar qo‘mitasi raisining o‘rinbosari lavozimidan ozod etilsin.

2. **Artiqov** Baxtiyor Maxkamovich (yagona saylov okrugidan Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasidan saylangan deputat) O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Mehnat, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy masalalar qo‘mitasi raisining o‘rinbosari etib saylansin hamda shu munosabat bilan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Budget va iqtisodiy masalalar qo‘mitasi raisining o‘rinbosari lavozimidan ozod etilsin.

3. **Xayitov** Xushvaqt Saparbayevich (yagona saylov okrugidan Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasidan saylangan deputat) O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Xalqaro ishlar, mudofaa va xavfsizlik masalalari qo‘mitasining a‘zosi etib saylansin hamda shu munosabat bilan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Fan, ta’lim, madaniyat, sport va yoshlar masalalari qo‘mitasining a‘zosi lavozimidan ozod etilsin.

4. Ushbu Qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

**O‘zbekiston Respublikasi
Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasi
Spikerining o‘rinbosari**

R. XAKIMOV

Toshkent shahri,
2025-yil 16-sentabr,
№ 1299–V.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY MAJLISI
QONUNCHILIK PALATASINING
QARORI

1084 M.Sh. Istamovni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Agrar va suv xo‘jaligi masalalari qo‘mitasining a‘zosi lavozimidan ozod etish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining 2025-yil 11-sentabrdagi «O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputati M. Istamovning vakolatini muddatidan ilgari tugatish to‘g‘risida»gi 1444-sonli qaroriga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi **QAROR QILADI:**

1. **Istamov** Maxmud Shuxratovich (yagona saylov okrugidan O‘zbekiston «Milliy tiklanish» demokratik partiyasidan saylangan deputat) deputatlik vakolati muddatidan ilgari tugatilganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Agrar va suv xo‘jaligi masalalari qo‘mitasining a‘zosi lavozimidan ozod etilsin.

2. Ushbu Qaror qabul qilingan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

**O‘zbekiston Respublikasi
Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasi
Spikerining o‘rinbosari**

R. XAKIMOV

Toshkent shahri,
2025-yil 16-sentabr,
№ 1300–V.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY MAJLISI
QONUNCHILIK PALATASINING
QARORI

1085 E.Sh. Hayitovni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Xalqaro ishlar, mudofaa va xavfsizlik masalalari qo‘mitasining a‘zosi lavozimidan ozod etish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining 2025-yil 11-sentabrdagi «O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputati E. Hayitovning vakolatini muddatidan ilgari tugatish to‘g‘risida»gi 1445-sonli qaroriga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi **QAROR QILADI:**

1. **Hayitov** Erkin Shaymardonovich (67-Qashqadaryo viloyati saylov okrugi) deputatlik vakolati muddatidan ilgari tugatilganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Xalqaro ishlar, mudofaa va xavfsizlik masalalari qo‘mitasining a‘zosi lavozimidan ozod etilsin.

2. Ushbu Qaror qabul qilingan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

O‘zbekiston Respublikasi

Oliy Majlisi

Qonunchilik palatasi

Spikerining o‘rinbosari

R. XAKIMOV

Toshkent shahri,
2025-yil 16-sentabr,
№ 1301–V.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY MAJLISI
QONUNCHILIK PALATASINING
QARORI

1086 O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi
majlisining kun tartibi to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi
QAROR QILADI:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi majlisining quyidagi kun tartibi tasdiqlansin:

1. «Aholini shovqinning zararli ta’siridan himoya qilish to‘g‘risida»gi QL–1186-sonli O‘zbekiston Respublikasi qonuni loyihasi haqida (ikkinchi o‘qish).

2. «Avtomobil yo‘llari to‘g‘risida»gi QL–100-sonli O‘zbekiston Respublikasi qonuni loyihasi haqida (ikkinchi o‘qish).

3. «O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida»gi QL–123-sonli O‘zbekiston Respublikasi qonuni loyihasi haqida (ikkinchi o‘qish).

4. «Huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida»gi QL–125-sonli O‘zbekiston Respublikasi qonuni loyihasi haqida («Xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida») (ikkinchi o‘qish).

5. «O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining

175⁸-moddasiga davlat xaridlari sohasidagi huquqbuzarliklarning oldini olishga qaratilgan qo‘shimcha kiritish to‘g‘risida»gi QL–132-sonli O‘zbekiston Respublikasi qonuni loyihasi haqida (birinchi o‘qish).

6. QL–123 va QL–132-sonli O‘zbekiston Respublikasi qonunlari loyihalarini birlashtirish to‘g‘risida.

7. «O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni haqida.

8. «O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga atrof-muhit, hayvonot va o‘simlik dunyosining muhofazasini kuchaytirishga, tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni ta‘minlashga qaratilgan qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida»gi QL–114-sonli O‘zbekiston Respublikasi qonuni loyihasi haqida («O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga atrof-muhit, hayvonot va o‘simlik dunyosining muhofazasini kuchaytirishga, tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni ta‘minlashga qaratilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida») (ikkinchi o‘qish).

9. «Suv resurslaridan samarali foydalanish, suvni tejaydigan sug‘orish uslublari va texnologiyalarini joriy etish hamda magistral va ichki kanallarni betonlashtirish ishlarining borishi to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining parlament so‘roviga O‘zbekiston Respublikasi suv xo‘jaligi vaziri Sh. Xamrayevning javobi haqida.

10. O‘zbekiston Respublikasi energetika vaziri J. Mirzamahmudovga «Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish, shu jumladan quyosh panellarini o‘rnatish borasidagi ishlar ko‘lamini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining parlament so‘rovini yuborish haqida.

11. O‘zbekiston Respublikasi qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vaziri Sh. Xidoyatovga «Ko‘p kvartirali uylarga tutash hududlardagi yashil maydonlarni, bolalar o‘yingohlarini va sport maydonchalarini boshqaruv servis kompaniyalariga birlashtirish, bu boradagi qonunbuzarliklarni aniqlash va bartaraf etish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar to‘g‘risida» O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining parlament so‘rovini yuborish haqida.

12. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Tashabbusli budget jarayonlarida parlament nazoratini amalga oshirish bo‘yicha komissiyasini tuzish to‘g‘risida.

13. N.X. Lutfullayevani O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Agrar va suv xo‘jaligi masalalari qo‘mitasining a‘zosi lavozimiga saylash to‘g‘risida.

**O‘zbekiston Respublikasi
Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasining
Spikeri**

N. ISMOILOV

Toshkent shahri,
2025-yil 23-sentabr,
№ 1314–V.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY MAJLISI
QONUNCHILIK PALATASINING
QARORI

1087 «Aholini shovqinning zararli ta’siridan himoya qilish to‘g‘risida»gi
QL–1186-sonli O‘zbekiston Respublikasi qonuni loyihasi haqida

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi
QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Reglamentining 146-moddasiga muvofiq «Aholini shovqinning zararli ta’siridan himoya qilish to‘g‘risida»gi QL–1186-sonli O‘zbekiston Respublikasi qonuni loyihasi maromiga yetkazish uchun O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari qo‘mitasiga qaytarilsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari qo‘mitasi mazkur qonun loyihasini bir oy ichida maromiga yetkazsin va Qonunchilik palatasi muhokamasiga qaytadan ikkinchi o‘qishda kiritсин.

3. Ushbu Qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

**O‘zbekiston Respublikasi
Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasining
Spikeri**

N. ISMOILOV

Toshkent shahri,
2025-yil 23-sentabr,
№ 1315–V.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY MAJLISI
QONUNCHILIK PALATASINING
QARORI

1088 «Avtomobil yo‘llari to‘g‘risida»gi QL–100-sonli O‘zbekiston
Respublikasi qonuni loyihasi haqida

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi
QAROR QILADI:

1. «Avtomobil yo‘llari to‘g‘risida»gi QL–100-sonli O‘zbekiston Respublikasi qonuni loyihasi ikkinchi o‘qishda qabul qilinsin.

2. Ushbu Qaror qabul qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

**O'zbekiston Respublikasi
Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasining
Spikeri**

N. ISMOILOV

Toshkent shahri,
2025-yil 23-sentabr,
№ 1316–V.

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY MAJLISI
QONUNCHILIK PALATASINING
QARORI**

**1089 «Avtomobil yo'llari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni
haqida**

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi
QAROR QILADI:

1. «Avtomobil yo'llari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilinsin.
2. Mazkur Qonun O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatiga yuborilsin.
3. Ushbu Qaror qabul qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

**O'zbekiston Respublikasi
Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasining
Spikeri**

N. ISMOILOV

Toshkent shahri,
2025-yil 23-sentabr,
№ 1317–V.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY MAJLISI
QONUNCHILIK PALATASINING
QARORI

1090 «O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida»gi QL–123-sonli O‘zbekiston Respublikasi qonuni loyihasi haqida

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi
QAROR QILADI:

1. «O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida»gi QL–123-sonli O‘zbekiston Respublikasi qonuni loyihasi ikkinchi o‘qishda qabul qilinsin.
2. Ushbu Qaror qabul qilingan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

**O‘zbekiston Respublikasi
Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasining
Spikeri**

N. ISMOILOV

Toshkent shahri,
2025-yil 23-sentabr,
№ 1318–V.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY MAJLISI
QONUNCHILIK PALATASINING
QARORI

1091 «Huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida»gi QL–125-sonli O‘zbekiston Respublikasi qonuni loyihasi haqida («Xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida»)

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi
QAROR QILADI:

1. «Xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining

ayrim qonun hujjatlariga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida»gi QL–125-sonli O‘zbekiston Respublikasi qonuni loyihasi «Huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida» degan yangi nom bilan ikkinchi o‘qishda qabul qilinsin.

2. Ushbu Qaror qabul qilingan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

O‘zbekiston Respublikasi
Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasining
Spikeri

N. ISMOILOV

Toshkent shahri,
2025-yil 23-sentabr,
№ 1319–V.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY MAJLISI
QONUNCHILIK PALATASINING
QARORI

1092 «Huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni haqida

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi
QAROR QILADI:

1. «Huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilinsin.

2. Mazkur Qonun O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatiga yuborilsin.

3. Ushbu Qaror qabul qilingan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

O‘zbekiston Respublikasi
Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasining
Spikeri

N. ISMOILOV

Toshkent shahri,
2025-yil 23-sentabr,
№ 1320–V.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY MAJLISI
QONUNCHILIK PALATASINING
QARORI

1093 «O‘zbekiston Respublikasi Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 175⁸-moddasiga davlat xaridlari sohasidagi huquqbuzarliklarning oldini olishga qaratilgan qo‘shimcha kiritish to‘g‘risida»gi QL–132-sonli O‘zbekiston Respublikasi qonuni loyihasi haqida

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi
QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2025-yil 10-sentabrda kiritilgan «O‘zbekiston Respublikasi Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 175⁸-moddasiga davlat xaridlari sohasidagi huquqbuzarliklarning oldini olishga qaratilgan qo‘shimcha kiritish to‘g‘risida»gi QL–132-sonli O‘zbekiston Respublikasi qonuni loyihasi birinchi o‘qishda qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Budjet va iqtisodiy masalalar qo‘mitasi kelib tushgan tuzatishlarni hisobga olgan holda mazkur qonun loyihasini maromiga yetkazsin va ikkinchi o‘qishda Qonunchilik palatasi muhokamasiga kiritсин.

3. Ushbu Qaror qabul qilingan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

**O‘zbekiston Respublikasi
Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasining
Spikeri**

N. ISMOILOV

Toshkent shahri,
2025-yil 23-sentabr,
№ 1321–V.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY MAJLISI
QONUNCHILIK PALATASINING
QARORI

1094 «O‘zbekiston Respublikasi Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 175⁸-moddasiga davlat xaridlari sohasidagi huquqbuzarliklarning oldini olishga qaratilgan qo‘shimcha kiritish to‘g‘risida»gi QL–132-sonli O‘zbekiston Respublikasi qonuni loyihasi haqida

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi
QAROR QILADI:

1. «O‘zbekiston Respublikasi Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 175⁸-moddasiga davlat xaridlari sohasidagi huquqbuzarliklarning oldini olishga qaratilgan qo‘shimcha kiritish to‘g‘risida»gi QL–132-sonli O‘zbekiston Respublikasi qonuni loyihasi ikkinchi o‘qishda qabul qilinsin.

2. Ushbu Qaror qabul qilingan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

**O‘zbekiston Respublikasi
Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasining
Spikeri**

N. ISMOILOV

Toshkent shahri,
2025-yil 23-sentabr,
№ 1322–V.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY MAJLISI
QONUNCHILIK PALATASINING
QARORI

1095 QL–123 va QL–132-sonli O‘zbekiston Respublikasi qonunlari loyihalarini birlashtirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi
QAROR QILADI:

1. Ikkinchi o‘qishda qabul qilingan «O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida»gi QL–123-sonli O‘zbekiston Respublikasi qonuni loyihasi hamda «O‘zbekiston Respublikasi Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 175⁸-moddasiga davlat xaridlari sohasidagi huquqbuzarliklarning oldini olishga qaratilgan qo‘shimcha kiritish to‘g‘risida»gi QL–132-sonli O‘zbekiston Respublikasi qonuni loyihasi

«O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida» degan yangi nom bilan bitta qonun loyihasiga birlashtirilsin.

2. Ushbu Qaror qabul qilingan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

O‘zbekiston Respublikasi
Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasining
Spikeri

N. ISMOILOV

Toshkent shahri,
2025-yil 23-sentabr,
№ 1323–V.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY MAJLISI
QONUNCHILIK PALATASINING
QARORI

1096 «O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgar-
tirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston
Respublikasi Qonuni haqida

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi
QAROR QILADI:

1. «O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilinsin.
2. Mazkur Qonun O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatiga yuborilsin.
3. Ushbu Qaror qabul qilingan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

O‘zbekiston Respublikasi
Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasining
Spikeri

N. ISMOILOV

Toshkent shahri,
2025-yil 23-sentabr,
№ 1324–V.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY MAJLISI
QONUNCHILIK PALATASINING
QARORI

1097 «O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga atrof-muhit, hayvonot va o‘simlik dunyosining muhofazasini kuchaytirishga, tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni ta‘minlashga qaratilgan qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida»gi QL–114-sonli O‘zbekiston Respublikasi qonuni loyihasi haqida («O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga atrof-muhit, hayvonot va o‘simlik dunyosining muhofazasini kuchaytirishga, tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni ta‘minlashga qaratilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida»)

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi
QAROR QILADI:

1. «O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga atrof-muhit, hayvonot va o‘simlik dunyosining muhofazasini kuchaytirishga, tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni ta‘minlashga qaratilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida»gi QL–114-sonli O‘zbekiston Respublikasi qonuni loyihasi «O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga atrof-muhit, hayvonot va o‘simlik dunyosining muhofazasini kuchaytirishga, tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni ta‘minlashga qaratilgan qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida» degan nom bilan ikkinchi o‘qishda qabul qilinsin.

2. Ushbu Qaror qabul qilingan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

**O‘zbekiston Respublikasi
Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasining
Spikeri**

N. ISMOILOV

Toshkent shahri,
2025-yil 23-sentabr,
№ 1325–V.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY MAJLISI
QONUNCHILIK PALATASINING
QARORI

1098 «O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga atrof-muhit, hayvonot va o‘simlik dunyosining muhofazasini kuchaytirishga, tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni ta‘minlashga qaratilgan qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni haqida

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi
QAROR QILADI:

1. «O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga atrof-muhit, hayvonot va o‘simlik dunyosining muhofazasini kuchaytirishga, tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni ta‘minlashga qaratilgan qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilinsin.

2. Mazkur Qonun O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatiga yuborilsin.

3. Ushbu Qaror qabul qilingan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

**O‘zbekiston Respublikasi
Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasining
Spikeri**

N. ISMOILOV

Toshkent shahri,
2025-yil 23-sentabr,
№ 1326–V.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY MAJLISI
QONUNCHILIK PALATASINING
QARORI

1099 «Suv resurslaridan samarali foydalanish, suvni tejaydigan sug‘orish uslublari va texnologiyalarini joriy etish hamda magistral va ichki kanallarni betonlashtirish ishlarining borishi to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining parlament so‘roviga O‘zbekiston Respublikasi suv xo‘jaligi vaziri Sh. Xamrayevning javobi haqida

«Parlament nazorati to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 14-moddasiga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi **QAROR QILADI:**

1. «Suv resurslaridan samarali foydalanish, suvni tejaydigan sugʻorish uslublari va texnologiyalarini joriy etish hamda magistral va ichki kanallarni betonlashtirish ishlarining borishi toʻgʻrisida»gi Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining parlament soʻroviga Oʻzbekiston Respublikasi suv xoʻjaligi vaziri Sh. Xamrayev tomonidan yuborilgan yozma javob maʼlumot uchun qabul qilinsin.

2. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga Oʻzbekiston Respublikasi Suv xoʻjaligi vazirligining yozma javob maʼlumotida taklif etilgan sugʻorish tarmoqlarini betonlashtirish ishlarini ragʻbatlantirish maqsadida qishloq xoʻjaligi ishlab chiqaruvchilariga subsidiyalar va imtiyozli kreditlar ajratish, suv obyektlarini betonlashtirgan hamda soz holatda saqlagan suv isteʼmolchilari uchun soliq toʻlovlari boʻyicha imtiyozlar berish mexanizmlarini joriy qilish masalasini koʻrib chiqish tavsiya etilsin.

3. Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Agrar va suv xoʻjaligi masalalari qoʻmitasi parlament soʻrovini koʻrib chiqish natijalari boʻyicha belgilangan chora-tadbirlarning ijro etilishi yuzasidan parlament nazoratini amalga oshirsin.

4. Ushbu Qaror qabul qilingan kundan eʼtiboran kuchga kiradi.

**Oʻzbekiston Respublikasi
Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasining
Spikeri**

N. ISMOILOV

Toshkent shahri,
2025-yil 23-sentabr,
№ 1327–V.

**OʻZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY MAJLISI
QONUNCHILIK PALATASINING
QARORI**

1100 Oʻzbekiston Respublikasi energetika vaziri J. Mirzamahmudovga «Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish, shu jumladan, quyosh panellarini oʻrnatish borasidagi ishlar koʻlamini kengaytirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida» Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining parlament soʻrovini yuborish haqida

Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 94-moddasiga, «Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi toʻgʻrisida»gi Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy Qonunining 12-moddasiga va «Parlament nazorati toʻgʻrisida»gi Oʻzbekiston Respublikasi Qonunining 14-moddasiga muvofiq Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi **QAROR QILADI:**

Oliy Majlis palatalarining Axborotnomasi, 2025-yil

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasidagi Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasi fraksiyasining hamda Tadbirkorlik, raqobatni rivojlantirish va sanoat masalalari qo‘mitasining O‘zbekiston Respublikasi energetika vaziri J. Mirzamahmudovga «Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish, shu jumladan quyosh panellarini o‘rnatish borasidagi ishlar ko‘lamini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining parlament so‘rovini yuborish haqidagi taklifi qabul qilinsin.

2. Mazkur Qaror va parlament so‘rovi O‘zbekiston Respublikasi energetika vaziri J. Mirzamahmudovga yuborilsin.

3. Ushbu Qaror qabul qilingan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

**O‘zbekiston Respublikasi
Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasining
Spikeri**

N. ISMOILOV

Toshkent shahri,
2025-yil 23-sentabr,
№ 1328–V.

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY MAJLISI
QONUNCHILIK PALATASINING
QARORI**

1101 O‘zbekiston Respublikasi qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vaziri Sh. Xidoyatovga «Ko‘p kvartirali uylarga tutash hududlardagi yashil maydonlarni, bolalar o‘yingohlarini va sport maydonchalarini boshqaruv servis kompaniyalariga biriktirish, bu boradagi qonunbuzarliklarni aniqlash va bartaraf etish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar to‘g‘risida» O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining parlament so‘rovini yuborish haqida

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 94-moddasiga, «O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy Qonunining 12-moddasiga va «Parlament nazorati to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 14-moddasiga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi **QAROR QILADI:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasidagi O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasi fraksiyasining hamda Tadbirkorlik, raqobatni rivojlantirish va sanoat masalalari qo‘mitasining O‘zbekiston Respublikasi qurilish va uy-joy

kommunal xo'jaligi vaziri Sh. Xidoyatovga «Ko'p kvartirali uylarga tutash hududlardagi yashil maydonlarni, bolalar o'yingohlarini va sport maydonchalarini boshqaruv servis kompaniyalariga birlashtirish, bu boradagi qonunbuzarliklarni aniqlash va bartaraf etish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining parlament so'rovini yuborish haqidagi taklifi qabul qilinsin.

2. Mazkur Qaror va parlament so'rovi O'zbekiston Respublikasi qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vaziri Sh. Xidoyatovga yuborilsin.

3. Ushbu Qaror qabul qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

O'zbekiston Respublikasi
Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasining
Spikeri

N. ISMOILOV

Toshkent shahri,
2025-yil 23-sentabr,
№ 1329–V.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY MAJLISI
QONUNCHILIK PALATASINING
QARORI

1102 O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining
Tashabbusli budjet jarayonlarida parlament nazoratini amalga
oshirish bo'yicha komissiyasini tuzish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatlarining saylov okruglaridagi ijtimoiy masalalarni hal etishdagi tashabbuskorligini kuchaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarni qo'llab-quvvatlash, tashabbusli budjetda g'olib bo'lmagan loyihani deputat tashabbusiga ko'ra g'olib deb e'lon qilish jarayonlarini muvofiqlashtirish, loyihalarning moliyalashtirilishi va amalga oshirilishi ustidan ta'sirchan parlament nazoratini olib borish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi **QAROR QILADI:**

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining vakolatlari muddatiga O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Tashabbusli budjet jarayonlarida parlament nazoratini amalga oshirish bo'yicha komissiyasi 1-ilovaga muvofiq tarkibda tuzilsin.

2. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Tashabbusli budjet jarayonlarida parlament nazoratini amalga oshirish bo'yicha komissiyasi to'g'risidagi nizom 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Ushbu Qaror qabul qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

O'zbekiston Respublikasi
Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasining
Spikeri

N. ISMOILOV

Toshkent shahri,
2025-yil 23-sentabr,
№ 1330–V.

O'zbekiston Respublikasi
Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining
2025-yil 23-sentabrdagi 1330–V-sonli Qaroriga
1-ILOVA

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining
Tashabbusli budjet jarayonlarida parlament nazoratini
amalga oshirish bo'yicha komissiyasi

TARKIBI

- | | |
|--|---|
| Inoyatov
Ulug'bek Ilyasovich | – O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasidagi O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi fraksiyasining rahbari, komissiya raisi |
| Kurbonboyev
Maqsud Komulovich | – O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Budjet va iqtisodiy masalalar qo'mitasi raisining o'rinbosari, komissiya raisining o'rinbosari |
| Abdullayev
Javlonbek Murodjonovich | – O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Innovatsion rivojlanish va axborot texnologiyalari masalalari qo'mitasi raisining o'rinbosari |
| Aripov
Davron Raximovich | – O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Korruptsiyaga qarshi kurashish va sud-huquq masalalari qo'mitasining a'zosi |
| Aslonova
Emma Sergeyevna | – O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Tadbirkorlik, raqobatni rivojlantirish va sanoat masalalari qo'mitasining a'zosi |
| Achilov
Jamol Alisherovich | – O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Budjet va iqtisodiy masalalar qo'mitasi raisining o'rinbosari |

- | | |
|--|---|
| Mamadjanova
Dilbarxon Raxmatovna | – O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Xalqaro ishlar, mudofaa va xavfsizlik masalalari qo‘mitasining a‘zosi |
| Otamuratov
Oybek Baxtiyorovich | – O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Agrar va suv xo‘jaligi masalalari qo‘mitasining a‘zosi |
| Salimova
Manzura Alimovna | – O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Budget va iqtisodiy masalalar qo‘mitasining a‘zosi |
| Tilavoldiyev
Nodir Xokimovich | – O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Demokratik institutlar va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish masalalari qo‘mitasi raisining o‘rinbosari |
| Xusanov
Diyor Sheraliyevich | – O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Innovatsion rivojlanish va axborot texnologiyalari masalalari qo‘mitasining a‘zosi |

O‘zbekiston Respublikasi
Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining
2025-yil 23-sentabrda 1330–V-sonli Qaroriga
2-ILOVA

**O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining
Tashabbusli budget jarayonlarida parlament nazoratini amalga
oshirish bo‘yicha komissiyasi to‘g‘risidagi
NIZOM**

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizom O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Tashabbusli budget jarayonlarida parlament nazoratini amalga oshirish bo‘yicha komissiyasining (bundan buyon matnda Komissiya deb yuritiladi) maqomini, asosiy vazifalarini, vakolatlarini hamda faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.

2. Komissiyaning maqsadi tashabbusli budget jarayonlari doirasida g‘olib bo‘lmagan loyihalarni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatlarining (bundan buyon matnda Deputatlar deb yuritiladi) tashabbusiga ko‘ra g‘olib deb e‘lon qilish jarayonlarini muvofiqlashtirish, loyihalarning moliyalashtirilishi va amalga oshirilishi ustidan parlament nazoratini olib borishdan iborat.

3. Komissiya o‘z faoliyatini O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga, tegishli qonunlariga va ushbu Nizomga muvofiq amalga oshiradi.

4. Komissiya O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining (bundan buyon matnda Qonunchilik palatasi deb yuritiladi) vakolatlari muddatiga tuziladi.

2-bob. Komissiyaning asosiy vazifalari va vakolatlari

5. Komissiyaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

tashabbusli budjet jarayonlari doirasida g'olib bo'lmagan loyihalar orasidan Deputatlar tashabbusiga ko'ra g'olib deb e'lon qilish jarayonlarini muvofiqlashtirish hamda mazkur loyihalarning moliyalashtirilishi va amalga oshirilishi ustidan parlament nazoratini olib borish;

tashabbusli budjet jarayonlari doirasida Deputatlar tashabbusiga ko'ra g'olib deb e'lon qilingan loyihalarga ajratilgan mablag'lardan o'z vaqtida va maqsadli foydalanilishi hamda moliyalashtirilgan loyihalarning ijrosi ustidan nazoratni amalga oshirish;

tashabbusli budjet jarayonlari doirasida g'olib bo'lmagan loyihalar orasidan Deputatlar tashabbusiga ko'ra g'olib deb e'lon qilish jarayonlarini takomillash-tirish, shuningdek ushbu sohaga samarali mexanizmlarni joriy etish bo'yicha takliflar yoki tavsiyalar ishlab chiqish.

6. Komissiyaning vakolatlari quyidagilardan iborat:

Yagona saylov okrugidan partiya ro'yxati asosida saylangan deputatlarning tashabbusli budjet jarayonlari doirasida loyihalarni tanlashda ishtirokini ta'minlash maqsadida ularni saylov okruglariga birlashtirish bo'yicha Qonunchilik palatasidagi siyosiy partiyalar fraksiyalariga takliflar kiritish;

tashabbusli budjet jarayonlari doirasida Deputatlar tashabbusiga ko'ra g'olib deb e'lon qilingan loyihalarning moliyalashtirilishi va bajarilishi bo'yicha amalga oshirilgan ishlarga doir ma'lumotlarni davlat organlaridan va boshqa tashkilotlardan so'rab olish;

o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni samarali bajarish maqsadida davlat organlari va tashkilotlar bilan kelishuvga ko'ra ularning vakillarini jalb etgan holda ishchi guruhlar tuzish;

tashabbusli budjet jarayonlari doirasida Deputatlar tashabbusiga ko'ra g'olib deb e'lon qilingan loyihalarning amalga oshirilishi holatini tegishli davlat organlari bilan birgalikda Komissiya majlisida muhokama qilish;

davlat organlariga hamda boshqa tashkilotlarga taklif va tavsiyalar kiritish;

tashabbusli budjet jarayonlari doirasida Deputatlar tashabbusiga ko'ra g'olib deb e'lon qilingan loyihalar bo'yicha amalga oshirilgan ishlar yuzasidan davlat organlari rahbarlarining axborotini tegishincha Qonunchilik palatasining, Qonunchilik palatasi qo'mitalarining majlislarida eshitish bo'yicha takliflar kiritish;

Komissiya qarorlarining ijro etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish.

Komissiya qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

7. Komissiya o'z faoliyatini amalga oshirishda davlat organlari va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlik qiladi.

3-bob. Komissiyaning ishini tashkil etish

8. Komissiya Qonunchilik palatasining qaroriga asosan Qonunchilik palatasining deputatlaridan iborat tarkibda tuziladi.

9. Komissiya raisi:

Komissiya faoliyatiga rahbarlik qiladi, uning ish rejasi loyihasi tayyorlanishini tashkil etadi va Komissiyaning tasdiqlangan ish rejasi bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi;

Komissiyaning majlislarini chaqiradi va ularda raislik qiladi;

Komissiya vakolatiga tegishli bo'lgan masalalarni uning majlisida ko'rib chiqish uchun kiritadi;

Komissiyaning qarorlarini imzolaydi va ularning ijro etilishiga doir ishlarni tashkil etadi.

10. Komissiya raisining o'rinbosari Komissiya raisi yo'qligida uning vazifasini bajarib turadi, Komissiya tomonidan belgilanadigan boshqa vazifalarni ham amalga oshiradi.

11. Komissiya majlislari Komissiya raisi tomonidan zaruratga qarab, lekin har yarim yilda kamida bir marta chaqiriladi. Komissiya majlislari Qonunchilik palatasi Spikerining tashabbusiga ko'ra ham chaqirilishi mumkin.

12. Komissiyaning majlislari komissiya ishining tashkiliy shaklidir. Komissiyaning majlisi unda Komissiya a'zolarining ko'pchiligi hozir bo'lganda vakolatlidir.

13. Komissiya qarorlari uning majlisida ishtirok etgan Komissiya a'zolarining ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Komissiya a'zolarining ovozlari teng bo'lganda raislik qiluvchining ovozi hal qiluvchi hisoblanadi.

14. Komissiya qarorlari ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinishi mumkin.

15. Komissiya qarorlari bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi.

16. Komissiya majlislariga ko'rib chiqilayotgan masalaga aloqador bo'lgan davlat organlarining, fuqarolik jamiyati institutlarining, ilmiy muassasalarning, xo'jalik yurituvchi subyektlarning vakillari, mutaxassislar, olimlar taklif etilishi mumkin.

Komissiyaning majlislarida Qonunchilik palatasining Spikeri, uning o'rinbosarlari, shuningdek Komissiya taklifiga ko'ra Qonunchilik palatasi Devonining mas'ul xodimlari ham ishtirok etishi mumkin.

17. Komissiya bajarilgan ishlar to'g'risida Qonunchilik palatasi tomonidan belgilangan muddatda Qonunchilik palatasiga axborot beradi.

18. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Devonining Davlat budjeti boshqarmasi Komissiyaning ishchi organi hisoblanadi.

**4-bob. Komissiya to'g'risidagi nizomga o'zgartirish
va qo'shimchalar kiritish tartibi**

19. Ushbu Nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar Qonunchilik palatasining qarori bilan kiritiladi.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY MAJLISI
QONUNCHILIK PALATASINING
QARORI

1103 N.X. Lutfullayevani O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasi Agrar va suv xo‘jaligi masalalari qo‘mi-
tasining a‘zosi lavozimiga saylash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining 2025-yil 16-sentabrdagi «Yagona saylov okrugi bo‘yicha bo‘shab qolgan o‘ringa O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasiga O‘zbekiston «Milliy tiklanish» demokratik partiyasi ro‘yxati asosida saylangan N. Lutfullayevani deputat etib ro‘yxatga olish to‘g‘risida»gi 1447-sonli qaroriga asosan hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasidagi siyosiy partiyalar fraksiyalari rahbarlarining takliflariga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi **QAROR QILADI:**

1. **Lutfullayeva** Nigora Xabibullayevna (yagona saylov okrugidan O‘zbekiston «Milliy tiklanish» demokratik partiyasidan saylangan deputat) O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Agrar va suv xo‘jaligi masalalari qo‘mitasining a‘zosi etib saylansin.

2. Ushbu Qaror qabul qilingan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

**O‘zbekiston Respublikasi
Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasining
Spikeri**

N. ISMOILOV

Toshkent shahri,
2025-yil 23-sentabr,
№ 1331–V.

TO‘RTINCHI BO‘LIM

1

ЎЗБЕКИСТОН RESPUBLIKASI PREZIDENTINING
FARMONI**1104** Арипов Тахир Фатиховичга «Ўзбекистон Республикасида
хизмат кўрсатган ёшлар мураббийси» фахрий унвонини бериш
тўғрисида

Мамлакатимизда илм-фан соҳасини ривожлантириш, халқимизнинг илмий-интеллектуал салоҳиятини юксалтириш борасидаги кўп йиллик самарали меҳнати, хусусан, биофизика йўналишидаги фундаментал тадқиқотлари билан кўплаб муҳим ихтиролар, илғор инновацион лойиҳаларни муваффақиятли амалга оширишга қўшган катта ҳиссаси, иқтидорли ёш олимларни тайёрлаш, навқирон авлодни Ватанга муҳаббат, умуминсоний қадриятларга ҳурмат, истиклол ғоясига садоқат руҳида тарбиялашдаги ибратли фаолияти ҳамда таваллудининг 80 йиллиги муносабати билан Ўзбекистон Республикаси Фанлар академиясининг Биоорганик кимё институти лаборатория мудири, академик Арипов Тахир Фатиховичга «Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган ёшлар мураббийси» фахрий унвони берилсин.

Ўзбекистон Республикасининг
Президенти

Ш. МИРЗИЁЕВ

Тошкент шаҳри,
2025 йил 5 сентябрь,
№ ПФ–154.

ЎЗБЕКИСТОН RESPUBLIKASI PREZIDENTINING
FARMONI**1105** Абдуқодиров Равил Вахобовични «Дўстлик» ордени билан
мукофотлаш тўғрисида

Давлат органларидаги кўп йиллик самарали ва фидокорона меҳнати, ўзининг бой билим ва тажрибаси, ташаббускорлик ва ташкилотчилик фазилатларини намоён этиб, юртимизда кенг қўламли ислохотларни муваффақиятли амалга ошириш, мамлакатимиз мустақиллигини мустаҳкамлаш, халқимиз фаровонлигини таъминлаш, Янги Ўзбекистонни барпо этишга қўшаётган катта ҳиссаси, юқори малакали кадрларни тайёрлаш, ёш авлодни Ватанга муҳаббат, миллий қадриятларимизга ҳурмат руҳида тарбиялаш

йўлидаги ибратли фаолияти учун ҳамда таваллудининг 75 йиллиги муносабати билан Ўзбекистон Республикаси Бош вазирининг маслаҳатчиси Абдуқодиров Равил Вахобович «Дўстлик» ордени билан мукофотлансин.

**Ўзбекистон Республикасининг
Президенти**

Ш. МИРЗИЁЕВ

Тошкент шаҳри,
2025 йил 5 сентябрь,
№ ПФ–155.

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ПРЕЗИДЕНТИНИНГ
ФАРМОНИ**

1106 Ўзбекистон Республикаси Президентининг айрим ҳужжат-
ларига ўзгартиришлар киритиш, шунингдек, баъзиларини
ўз кучини йўқотган деб ҳисоблаш тўғрисида

Ўзбекистон Республикасида фуқароларнинг виждон эркинлигини таъминлаш ва диний соҳадаги давлат сиёсати концепцияси ҳамда Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2025 йил 21 апрелдаги «Фуқароларнинг виждон эркинлиги ҳуқуқи кафолатларини янада мустаҳкамлаш ҳамда диний-маърифий соҳадаги ислохотларни янги босқичга олиб чиқиш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПФ–68-сонли Фармони билан диний-маърифий соҳадаги фаолиятни сифат жиҳатидан янги босқичга олиб чиқишнинг устувор йўналишлари белгиланди.

Фуқароларнинг виждон эркинлиги ҳуқуқи кафолатларини янада мустаҳкамлаш билан боғлиқ муносабатларни тартибга солувчи қонунчилик ҳужжатлари нормаларининг ўзаро мувофиқлигини таъминлаш мақсадида қарор қиламан:

1. Ўзбекистон Республикасининг Президентининг айрим ҳужжатларига **1-иловага** мувофиқ қонунчилик ҳужжатлари нормаларининг амалга оширилаётган ислохотларга мувофиқлигини таъминлашни назарда тутувчи ўзгартиришлар киритилсин.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг айрим ҳужжатлари **2-иловага** мувофиқ ўз кучини йўқотган деб ҳисоблансин.

3. Фармон ижросини назорат қилиш Ўзбекистон Республикаси Бош вазири А.Н. Арипов ҳамда Ўзбекистон Республикаси Президентининг маслаҳатчиси Р.Қ. Давлетов зиммасига юклансин.

**Ўзбекистон Республикасининг
Президенти**

Ш. МИРЗИЁЕВ

Тошкент шаҳри,
2025 йил 11 сентябрь,
№ ПФ–164.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг
2025 йил 11 сентябрдаги ПФ–164-сонли Фармони
1-ИЛОВА

**Ўзбекистон Республикаси Президентининг айрим ҳужжатларига
киритилаётган ўзгартиришлар**

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 1993 йил 5 февралдаги «Ўзбекистоннинг ўқувчи ёшларини рағбатлантириш чоралари тўғрисида»ги ПФ–555-сонли Фармонининг 2-бандидаги «Ўзбекистон халқаро ислом академиясида», «Ўзбекистон халқаро ислом академиясининг» сўзлари тегишинча «Ўзбекистон халқаро исломшунослик академиясида», «Ўзбекистон халқаро исломшунослик академиясининг» сўзлари билан алмаштирилсин.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 16 апрелдаги «Диний-маърифий соҳа фаолиятини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПФ–5416-сонли Фармонида:

(а) 4-бандда:

(i) иккинчи ва учинчи хатбошилар куйидаги тахрирда баён этилсин:

«Ўзбекистон халқаро исломшунослик академияси:

Ўзбекистон Республикаси Дин ишлари бўйича қўмитаси муассислигидаги исломшунослик ва диншунослик соҳаларида мутахассисларни ҳамда ўқув дастури, қўлланма ва дарсликларни тайёрлашга ихтисослашган таянч давлат олий таълим ва илмий-тадқиқот муассасаси ҳисобланади»;

(ii) тўртинчи хатбоши чиқариб ташлансин;

(iii) бешинчи – тўққизинчи хатбошилар тегишинча тўртинчи – саккизинчи хатбошилар деб ҳисоблансин;

(iv) олтинчи ва еттинчи хатбошилардаги «Ўзбекистон халқаро ислом академияси», «Ўзбекистон халқаро ислом академиясига» сўзлари тегишинча «Ўзбекистон халқаро исломшунослик академияси», «Ўзбекистон халқаро исломшунослик академиясига» сўзлари билан алмаштирилсин;

(б) 6 ва 11-бандлардаги «Ўзбекистон халқаро ислом академияси» сўзлари «Ўзбекистон халқаро исломшунослик академияси» сўзлари билан алмаштирилсин;

(в) 1-илованинг 9 ва 11-позициялари «Масъул ижрочилар» устунидаги «Ўзбекистон халқаро ислом академияси» сўзлари «Ўзбекистон халқаро исломшунослик академияси» сўзлари билан алмаштирилсин.

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 1 июлдаги «2021 – 2026 йилларга мўлжалланган экстремизм ва терроризмга қарши курашиш бўйича Ўзбекистон Республикаси Миллий стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида»ги ПФ–6255-сонли Фармонига 1-илованинг 2-боби 1-параграфининг тўртинчи хатбошисидаги «Ўзбекистон халқаро ислом академияси» сўзлари «Ўзбекистон халқаро исломшунослик академияси» сўзлари билан алмаштирилсин.

4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 25 январдаги «Республика ижро этувчи ҳокимият органлари фаолиятини самарали йўлга қўйишга доир биринчи навбатдаги ташкилий чора-тадбирлар тўғрисида»ги ПФ–14-сонли Фармонига 1-иловада:

(а) «Жами» позицияси куйидаги тахрирда баён этилсин:

«	Жами	49 034	45 099	3 935	»;
---	-------------	---------------	---------------	--------------	----

(б) «20. Дин ишлари бўйича қўмита» бўлими куйидаги тахрирда баён этилсин:

«	20. Дин ишлари бўйича қўмита				».
	Дин ишлари бўйича қўмита	327	306	21	
	<i>шу жумладан, раис ўринбосарлари сони</i>	<i>3</i>	<i>3</i>		

5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 27 мартдаги «Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузурида Имом Бухорий халқаро илмий-тадқиқот марказини ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПҚ–2855-сонли қарорига илованинг матни куйидаги тахрирда баён этилсин:

**«Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги
Имом Бухорий халқаро илмий-тадқиқот марказининг фаолиятини
қўллаб-қувватлаш ва мувофиқлаштириш бўйича васийлик кенгашининг
ТАРКИБИ**

1. А. Арипов — Ўзбекистон Республикасининг Бош вазири, *Васийлик кенгаши раиси*
2. Р. Давлетов — Ўзбекистон Республикаси Президентининг маслаҳатчиси, *Васийлик кенгаши раиси ўринбосари*
3. Х. Султонов — Ўзбекистон Республикаси Президенти маслаҳатчиси — Спичрайтер
4. А. Раматов — Ўзбекистон Республикаси Бош вазирининг ўринбосари
5. Ж. Қўчқоров — Ўзбекистон Республикаси Бош вазирининг ўринбосари — иқтисодиёт ва молия вазири
6. О. Назарбеков — маданият вазири
7. К. Шарипов — олий таълим, фан ва инновациялар вазири
8. А. Ташкулов — адлия вазири
9. А. Мавлонов — Божхона қўмитаси раиси
10. Ш. Хидоятлов — қурилиш ва уй-жой коммунал хўжалиги вазири
11. С. Тошбоев — Дин ишлари бўйича қўмита раиси
12. Ш. Аюпов — Ўзбекистон Фанлар академияси президенти
13. Ф. Абдухаликов — Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Ўзбекистондаги Ислом цивилизацияси маркази директори
14. А. Бобоев — Самарқанд вилояти ҳокими в.б.
15. М. Камилов — Ўзбекистон халқаро исломшунослик академияси ректори
16. О. Хасанов — Республика Маънавият ва маърифат маркази директори
17. Лавозим бўйича — Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Имом Мотуридий халқаро илмий-тадқиқот маркази директори

18. Ш. Зиёдов — Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Имом Бухорий халқаро илмий-тадқиқот маркази директори, *Васийлик кенгаши котиби*

Изоҳ. *Васийлик кенгаши аъзолари бошқа ишга ўтган тақдирда, унинг таркибига ушбу лавозимларга янги тайинланган шахслар ёки зиммасига тегишли функцияларни бажариш юкланган шахслар киритилади».*

6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 26 сентябрдаги «Олий таълим муассасаларига кириш учун номзодларни мақсадли тайёрлаш тизимини янада такомиллаштириш тўғрисида»ги ПҚ–3290-сонли қарорига 2-илованинг 1-позициясидаги «Ўзбекистон Халқаро ислом академияси» сўзлари «Ўзбекистон халқаро исломшунослик академияси» сўзлари билан алмаштирилсин.

7. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 4 августдаги «Ўзбекистон Республикаси Қуролли Кучлари ҳарбий хизматчиларининг маънавий-маърифий савиясини ошириш тизимини тубдан такомиллаштириш тўғрисида»ги ПҚ–3898-сонли қарорига 2-илованинг 3 ва 14-позициялари «Масъул ижрочилар» устунидаги «Ўзбекистон халқаро ислом академияси» сўзлари «Ўзбекистон халқаро исломшунослик академияси» сўзлари билан алмаштирилсин.

8. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 11 августдаги «Имом Мотуридий халқаро илмий-тадқиқот марказини ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПҚ–4802-сонли қарорида:

(а) 2-банд куйидаги таҳрирда баён этилсин:

«2. Марказнинг асосий вазифалари этиб куйидагилар белгилансин:

Имом Мотуридий, Абу Муин Насафий каби буюк аллома аждодларимиз қолдирган бой маънавий меросни ўрганиш, жаҳон илм-фани ривожига қўшган бекиёс ҳиссасини халқимиз, айниқса, ёшларга етказиш, улар яратган асарларнинг илмий-изоҳли таржима ва киёсий матнларини нашр этиш, мамлакатимиз ҳудудида рўй берган Биринчи ва Иккинчи Ренессанснинг илмий-назарий асосларини тадқиқ этиш ҳамда Янги Ўзбекистон тараққиётининг маънавий пойдеворини яратишда иштирок этиш;

ислом динининг инсонпарварлик моҳияти, маърифий-маданий роли ва ривожланиш йўналишларини илмий асосда ўрганиш ва кенг оммага, жумладан, халқаро жамоатчиликка етказиш;

мамлакатда ҳамда хорижий давлатларнинг кутубхоналари ва архив фондларида сақланаётган буюк алломаларнинг калом илмига оид мероси ҳамда ислом дунёси учун муҳим илмий аҳамиятга эга бўлган қўлёзма, тошбосма асарларнинг асл ҳамда электрон нусхаларини тўплаш ва келажак авлодга етказиш учун тизимли илмий тадқиқотларни ташкил этиш;

исломий илмлар, хусусан, калом илми тарихи ва унинг бугунги кундаги аҳамиятини илмий тадқиқ этиш соҳасидаги халқаро ҳамкорликни кучайтириш мақсадида илмий-назарий ва услубий масалаларга бағишланган анжуман, конференция, симпозиум, кўргазма, илмий маъруза, семинар-тренинг ва танловлар ҳамда бошқа маданий-маърифий тадбирларни ташкил этиш;

тадқиқот натижалари юзасидан комуслар, каталоглар, альбомлар, илмий-

оммабоп ҳужжатли фильмлар, ахборот-ресурс базасини тайёрлаш ва оммавий ахборот воситалари, хусусан, Интернет жаҳон ахборот тармоғида эълон қилишни ташкил қилиш;

ислом тарихи ва калом илми йўналишидаги янги тадқиқотлар натижаларидан илмий жамоатчиликни кенг хабардор этиш;

«жаҳолатга қарши маърифат» ғояси асосида ислом динининг илм-маърифат, маънавий поклик, тинчлик-осойишталик, тараққиёт ва бунёдкорликка қақирувчи ғояларини халққа, айниқса, ёшларга етказиш, мутаассиблик, экстремизмнинг мақсадлари, ғоявий негизлари, замонавий кўринишлари ва фаолият услубларини ўрганиш ҳамда уларга қарши курашишнинг илмий-маърифий асосларини ишлаб чиқиш ва амалиётда қўллаш учун тавсия этиш;

диний таълим муассасаларига илмий-тадқиқот ва ўқув-услубий масалаларда ҳамда педагог кадрлар ва диний ходимларнинг малакасини ошириб боришда амалий ёрдам кўрсатиш;

ижтимоий-маънавий муҳит барқарорлигини сақлаш, ёшларни ёт ғоялар таъсиридан асрашга қаратилган стратегик аҳамиятга эга лойиҳа ва ташаббусларни ишлаб чиқиш»;

(б) 4-банднинг иккинчи хатбошиси қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

«Марказ директори Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси томонидан лавозимга тайинланади ва лавозимидан озод этилади»;

(в) 8-банддаги «Ўзбекистон халқаро ислом академияси ректорига» сўзлари «Марказ директорига» сўзлари билан алмаштирилсин;

(г) 9-банддаги «Ўзбекистон халқаро ислом академияси Марказ ва» сўзлари «Марказ» сўзи билан алмаштирилсин;

(д) 1-илованинг матни қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

«Имом Мотуридий халқаро илмий-тадқиқот марказининг фаолиятини қўллаб-қувватлаш ва мувофиқлаштириш бўйича васийлик кенгашининг ТАРКИБИ

1. Р.Қ. Давлетов — Ўзбекистон Республикаси Президенти маслаҳатчиси, *Васийлик кенгаши раиси*
2. З.Б. Махкамова — Ўзбекистон Республикаси Бош вазирининг ўринбосари
3. А.Ж. Ташкулов — адлия вазири
4. К.А. Шарипов — олий таълим, фан ва инновациялар вазири
5. У.К. Абидхаджаев — иқтисодиёт ва молия вазири ўринбосари
6. С.Д. Тошбоев — Ўзбекистон Республикаси Дин ишлари бўйича қўмитаси раиси
7. Ф.Ф. Абдухаликов — Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Ўзбекистондаги Ислом цивилизацияси маркази директори
8. М.М. Камилов — Ўзбекистон халқаро исломшунослик академияси ректори
9. Ш.А. Аюпов — Ўзбекистон Фанлар академияси президенти
10. Г.С. Исмаилова — «Эл-юрт умиди» жамғармаси ижрочи директори
11. О.А. Хасанов — Республика Маънавият ва маърифат маркази раҳбари

12. Ш.Ю. Зиёдов – Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Имом Бухорий халқаро илмий-тадқиқот маркази директори
13. Лавозим бўйича – Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Имом Мотуридий халқаро илмий-тадқиқот маркази директори, *Васийлик кенгаши котиби*

Изоҳлар:

Васийлик кенгаши аъзолари бошқа ишга ўтган тақдирда, унинг таркибига ушбу лавозимларга янги тайинланган ёки зиммасига тегишли функцияларни бажариш юкланган шахслар киритилади.

Васийлик кенгаши ишига келишилган ҳолда бошқа вазирликлар, идоралар, маҳаллий давлат ҳокимияти органлари, хўжалик жамиятлари ва фукаролик жамияти институтлари раҳбарлари ва мутахассислари жалб қилиниши мумкин».

9. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 22 июндаги «Ўзбекистон Республикасининг халқаро шартномаларидан ва халқаро ташкилотларга аъзоликдан келиб чиқадиган мажбуриятларини бажариш тартибини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПҚ–4756-сонли қарорига 1-илованинг 36-позицияси «Тўловчилар номи» устунидаги «Ўзбекистон халқаро ислом академияси» сўзлари «Ўзбекистон халқаро исломшунослик академияси» сўзлари билан алмаштирилсин.

10. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 3 декабрдаги «Иқтидорли ёшларни саралаб олиш тизими ва академик лицейлар фаолиятини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПҚ–4910-сонли қарорига 2-илованинг 1-позицияси «Академик лицей номи» устунидаги «Ўзбекистон халқаро ислом академияси» сўзлари «Ўзбекистон халқаро исломшунослик академияси» сўзлари билан алмаштирилсин.

11. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 16 июлдаги «Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Ўзбекистондаги Ислом цивилизацияси маркази фаолиятини янада такомиллаштиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги ПҚ–5186-сонли қарорига:

(а) 12-банддаги «Ўзбекистон халқаро ислом академияси» сўзлари «Ўзбекистон халқаро исломшунослик академияси» сўзлари билан алмаштирилсин;

(б) 1-иловада 2, 7, 13 – 15, 21, 25, 27 ва 29-позицияларининг «Масъуллар» устунидаги «Ўзбекистон халқаро ислом академияси» сўзлари «Ўзбекистон халқаро исломшунослик академияси» сўзлари билан алмаштирилсин;

(в) 3-иловада:

(i) 3-банддаги «3. Исломов – Ўзбекистон халқаро ислом академияси илмий ишлар ва инновациялар бўйича проректори» сўзлари «И. Даминов – Ўзбекистон халқаро исломшунослик академияси илмий ишлар ва инновациялар бўйича проректори» сўзлари билан алмаштирилсин;

(ii) 7-банддаги «Д. Махсудов – Ўзбекистон халқаро ислом академияси ҳузуридаги Имом Мотуридий халқаро илмий-тадқиқот маркази директори» сўзлари «Лавозим бўйича – Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Имом Мотуридий халқаро илмий-тадқиқот маркази директори» сўзлари билан алмаштирилсин;

(iii) 9-банддаги «Ўзбекистон халқаро ислом академияси» сўзлари «Ўзбекистон халқаро исломшунослик академияси» сўзлари билан алмаштирилсин.

12. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 10 февралдаги «Қадимий ёзма манбаларни сақлаш ва тадқиқ этиш тизимини такомиллаштиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги ПҚ–126-сонли қарорида:

(а) 3-банднинг бешинчи хатбошиси, 8-банднинг биринчи ва тўртинчи хатбошилари, 9-банднинг иккинчи хатбошиси, 10-банднинг биринчи хатбошисидаги ва 13-банддаги тегишли келишиқдаги «Ўзбекистон халқаро ислом академияси» сўзлари тегишли келишиқдаги «Ўзбекистон халқаро исломшунослик академияси» сўзлари билан алмаштирилсин;

(б) 6-бандда:

(i) еттинчи хатбоши чиқариб ташлансин;

(ii) саккизинчи хатбоши еттинчи хатбоши деб ҳисоблансин.

13. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 26 апрелдаги «Республиканинг туризм салоҳиятини жадал ривожлантириш ҳамда маҳаллий ва хорижий туристлар сонини янада оширишга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги ПҚ–135-сонли қарорида:

(а) 3-банддаги «Ўзбекистон халқаро ислом академияси» сўзлари «Ўзбекистон халқаро исломшунослик академияси» сўзлари билан алмаштирилсин;

(б) 8-илованинг 3-позицияси «Олий таълим ташкилотлари» устундаги «Ўзбекистон халқаро ислом академияси» сўзлари «Ўзбекистон халқаро исломшунослик академияси» сўзлари билан алмаштирилсин.

14. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2024 йил 18 июлдаги «Туризм соҳасида кадрлар тайёрлаш тизимини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПҚ–269-сонли қарорига 1-илованинг 14-позицияси «Масъул ижрочилар» устундаги «Ўзбекистон халқаро ислом академияси» сўзлари «Ўзбекистон халқаро исломшунослик академияси» сўзлари билан алмаштирилсин.

15. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2024 йил 27 декабрдаги «Туркистон жадидлик ҳаракатининг асосчиси, атоқли адиб ва жамоат арбоби, ношир ва педагог Маҳмудхўжа Бехбудий таваллудининг 150 йиллигини кенг нишонлаш тўғрисида»ги ПҚ–462-сонли қарорига илованинг 18-бандидаги «Ўзбекистон халқаро ислом академияси» сўзлари «Ўзбекистон халқаро исломшунослик академияси» сўзлари билан алмаштирилсин.

16. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2024 йил 31 декабрдаги «Мамлакатнинг ижтимоий, сиёсий ва иқтисодий ривожланиш соҳаларидаги стратегик таҳлил ва тадқиқот қилиш фаолиятини самарали ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПҚ–467-сонли қарорига 1-илованинг 29-бандидаги, 3-илованинг 5-бандидаги, 5-илованинг 4-бандидаги «Ўзбекистон халқаро ислом академияси» сўзлари «Ўзбекистон халқаро исломшунослик академияси» сўзлари билан алмаштирилсин.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг
2025 йил 11 сентябрдаги ПФ–164-сонли Фармониغا
2-ИЛОВА

**Ўзбекистон Республикаси Президентининг ўз кучини йўқотган
деб эътироф этилаётган айрим ҳужжатлари
РЎЙХАТИ**

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 28 сентябрдаги «Ўзбекистон Республикаси Президентининг айрим ҳужжатларига ўзгартиришлар киритиш тўғрисида» (Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Маънавий-маърифий ишлар самарадорлигини ошириш ва соҳани ривожлантиришни янги босқичга кўтариш тўғрисида» 2017 йил 28 июлдаги ПҚ–3160-сонли қарори)»ги ПФ–5194-сонли Фармониغا илованинг 6-банди.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 17 мартдаги «Ўзбекистон Республикаси Президентининг айрим ҳужжатларига ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш, шунингдек, баъзиларини ўз кучини йўқотган деб ҳисоблаш тўғрисида»ги ПФ–6188-сонли Фармониغا 1-илованинг 53-банди.

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 9 ноябрдаги «Ўзбекистон Республикаси Президентининг айрим ҳужжатларига ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида»ги ПФ–3-сонли Фармониغا илованинг 27-банди.

4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2008 йил 7 августдаги «Ўзбекистон мусулмонлари идораси ҳузурида Муқаддас кадамжоларни сақлаш ва обод этиш хайрия жамғармасини ташкил қилиш тўғрисида»ги ПҚ–938-сонли қарори.

5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 15 декабрдаги «Ўзбекистон Ислоҳ академиясини ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПҚ–3433-сонли қарори.

6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 16 апрелдаги «Дин ишлари бўйича қўмита фаолиятини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПҚ–3668-сонли қарорининг 4-банди биринчи хатбошиси ва 2-иловаси.

7. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 4 сентябрдаги «Диний-маърифий соҳа фаолиятини такомиллаштириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги ПҚ–4436-сонли қарорининг 1-банди.

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ПРЕЗИДЕНТИНИНГ
ФАРМОНИ

1107 **Енгил саноат соҳасида юқори қўшилган қийматли маҳсулотлар ишлаб чиқариш ва экспорт ҳажмини ошириш учун қўшимча шарт-шароитлар яратиш тўғрисида**

Енгил саноат соҳасида давлат сиёсатининг устувор йўналишларини ишлаб чиқиш ва сифатли амалга ошириш, шу жумладан, тўқимачилик, чарм-пойабзал, ипакчилик ва гиламчилик йўналишида амалга оширилаётган ислохотларни янада жадаллаштириш мақсадида **қарор қиламан:**

1. Давлат бошқарувини такомиллаштириш

1. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузурида Енгил саноатни ривожлантириш агентлиги (кейинги ўринларда – Агентлик) ташкил этилсин ва **Агентликнинг асосий вазифалари 1-иловага** мувофиқ тасдиқлансин.

2. Белгилаб қўйилсинки, Агентлик тўқимачилик, чарм-пойабзал, ипакчилик ва гиламчилик саноати (кейинги ўринларда – енгил саноат) соҳаларида устувор йўналишларни ишлаб чиқиш ва амалга ошириш бўйича ваколатли давлат органи ҳисобланади.

3. Агентликка юклатилган вазифалар ижросини самарали таъминлаш мақсадида:

(а) Иқтисодиёт ва молия вазирлиги, Инвестициялар, саноат ва савдо вазирлиги, «Ўзтўқимачиликсаноат», «Ўзчармсаноат» ва «Ўзбекипаксаноат» уюшмаларининг Агентлик қошида тажрибали тадбиркорлардан иборат **Енгил саноат соҳасида жамоатчилик кенгашини 2-иловага** мувофиқ таркибда тузиш тўғрисидаги таклифи маъқуллансин;

(б) Ўзбекистон-Корея ўқув-амалий тўқимачилик технопарки, Ипакчилик илмий-тадқиқот институти ва Ўзбекистон табиий толалар илмий-тадқиқот институтлари амалдаги молиялаштириш тартибини сақлаб қолган ҳолда Агентлик тизимига ўтказилсин.

4. Агентликка мазкур Фармоннинг 3-банди «б» кичик бандида назарда тутилган ўқув-амалий ва илмий-тадқиқот муассасалари раҳбарларини белгиланган тартибда лавозимга тайинлаш ва лавозимидан озод этиш ваколати берилсин.

5. Белгилаб қўйилсинки, енгил саноат соҳасида белгиланган вазифаларни амалга оширишда «Ўзтўқимачиликсаноат», «Ўзчармсаноат» ва «Ўзбекипаксаноат» уюшмалари ҳамда кадрларни тайёрлаш, таълим йўналишлари ва дастурларини ишлаб чиқиш, илмий-тадқиқот ишларини амалга оширишда Тошкент тўқимачилик ва енгил саноат институти ўз фаолиятини Агентлик билан ҳамкорликда олиб боради.

6. Агентлик қошида юридик шахс ташкил этмаган ҳолда бюджетдан ташқари **Енгил саноатни қўллаб-қувватлаш жамғармаси** (кейинги ўринларда – Жамғарма) ташкил этилсин ва Жамғарма даромадларини шакллантириш манбалари **3-иловага** мувофиқ тасдиқлансин.

7. Агентлик томонидан енгил саноат соҳасидаги корхоналарга Жамғарма

маблағлари ҳисобидан **2025 йил 1 октябрдан** бошлаб қуйидаги молиявий қўллаб-қувватлаш чоралари қўлланилиши белгилаб қўйилсин:

(а) халқаро брендларни жалб қилиш, стандартлаштириш ва сертификатлашнинг халқаро тизимларини, молиявий ҳисоботларнинг халқаро стандартларини жорий этиш, экспорт шартномалари бўйича суғурталашни молиялаштириш харажатларини қоплаш ҳамда мутахассисларни ўқитиш учун грантлар ажратиш;

(б) хорижий давлатларда савдо уйлари очиш ва сақлаш, офис, савдо ва омбор биноларини ижарага олиш, реклама кампанияларини ташкил этиш билан боғлиқ чет элдаги харажатларининг бир қисmini қоплаш;

(в) хорижий консалтинг компанияларни ва малакали мутахассисларни жалб қилиш, кўргазма стендларини ташкил этиш ва халқаро кўргазма-ярмаркалар, тренинглар ва бизнес-форумларда иштирок этиш харажатларини қоплаб бериш, хорижий ахборот ресурсларида маълумотларни жойлаштиришда молиявий ёрдам кўрсатиш;

(г) энгил саноат корхоналарини, шу жумладан, тайёр тикув-трикотаж, табиий ва сунъий чармдан тайёр пойабзал ва чарм атторлик маҳсулотлари, ипак мато ишлаб чиқарувчи корхоналарни белгиланган тартибда молиявий қўллаб-қувватлаш;

(д) Жамғарма маблағлари ҳисобидан ҳудудларда ташкил этиладиган энгил саноат корхоналарига кўмаклашиш лойиҳа офисларини сақлаш, жалб қилинадиган хорижий маслаҳатчилар ва консалтинг компаниялари харажатларини қоплаш, Агентлик фаолиятини қўллаб-қувватлаш, ҳамкор уюшмалар ҳамда илмий муассасаларни ўрнатилган тартибда молиялаштириш.

8. Агентлик Жамғарма маблағлари ҳисобидан Ўзбек-Корея ўқув-амалий тўқимачилик технопарки негизида:

(а) **2026 йил 1 июлга қадар 24** турдаги текширувлар ўтказиладиган замонавий **тўқимачилик лабораториясини** ташкил этиш ҳамда уни **жиҳозлаш ва халқаро аккредитациядан** ўтказишни таъминласин;

(б) **уч ой муддатда «Fashion business incubator»** лойиҳасини амалга ошириш ҳамда уни молиялаштириш учун дастлабки босқичда **5 млрд. сўм** ажратиш чораларини кўрсин.

9. Белгилансинки, Жамғарманинг йиллик харажатлари чораклар кесимида Агентлик томонидан Кенгаш тавсиялари асосида ишлаб чиқилиб, Иқтисодиёт ва молия вазирлиги билан келишилгандан кейин тасдиқланади. Агентлик директориға йиллик харажатлар сметасининг 10 фоизигача миқдорда кейинчалик Кенгашга маълумот киритиш шарти билан ўзгартиришлар киритиш ҳуқуқи берилсин.

10. Белгилаб қўйилсинки, олис туманларда саноатни ривожлантиришни рағбатлантириш мақсадида **3–5 тоифадаги** туманларда ишлаб чиқариш филиалини очадиган тўқимачилик ва тикув-трикотаж корхоналарига филиалда 200 та иш ўрни яратиш ва ойлик ўртача иш ҳақини 2,5 миллион сўмдан кам бўлмаган миқдорда тўлаш шарти билан Жамғармадан:

(а) беш йилга 10 миллиард сўмгача Марказий банк асосий ставкасида кредит берилади;

(б) хориждан жалб қиладиган дизайнер, технолог, конструктор ва

маркетологлар ойлигининг бир қисми қоплаб берилади.

II. Молиялаштириш манбалари

11. Тикланиш ва тараққиёт жамғармаси Жамғармага 2030 йил 1 январга қадар қайтариш шарти билан йиллик **4 фоиз** ставкада **200 миллион АҚШ доллари** миқдоридаги маблағларни **2025–2026 йилларда** мутаносиб равишда, Жамғарма буюртманомалари асосида **босқичма-босқич** ажратилишини таъминласин. Бунда Тикланиш ва тараққиёт жамғармаси маблағлари ҳисобидан корхоналарни айланма маблағ билан таъминлаш учун Агентлик томонидан тижорат банкларига молиявий ресурслар ажратилади.

12. Иқтисодиёт ва молия вазирлиги:

(а) мазкур Фармоннинг 7-бандида назарда тутилган қўллаб-қувватлаш чоралари учун Савдога қўмаклашиш жамғармасига 2025 йилда ажратилган маблағлар ҳисобидан 20 миллиард сўми **бир ҳафта муддатда** Жамғармага ўтказсин, келгуси йилларда бюджет параметрларини шакллантиришда ушбу харажатларни назарда тутсин;

(б) Енгил саноат соҳаларини 2030 йилга қадар ривожлантириш стратегиясини ишлаб чиқиш ҳамда корхоналарни рақамлаштириш тадбирларини молиялаштириш учун Жамғармага 2026 йилда 50 миллиард сўм, 2027 йилда 100 миллиард сўм миқдорида маблағлар ажратилишини таъминласин.

III. Фармон ижросини ташкил этиш, таъминлаш ва назорат

13. Вазирлар Маҳкамаси **икки ҳафта** муддатда Агентлик фаолиятини ташкил этиш ва Енгил саноатни қўллаб-қувватлаш жамғармаси маблағларини шакллантириш ҳамда ундан фойдаланиш тартибини назарда тутувчи норматив-ҳуқуқий ҳужжатни тасдиқласин.

14. Агентлик **бир ой муддатда** конунчилик ҳужжатларига ушбу Фармондан келиб чиқадиган ўзгартириш ва қўшимчалар тўғрисидаги таклифларни Вазирлар Маҳкамасига киритсин.

15. Бош вазир ўринбосарлари Ж. Қўчқоров ва Ж. Ходжаев:

(а) **икки ой муддатда** енгил саноат соҳасини чуқур таҳлил қилган ҳолда юқори қўшилган қийматли маҳсулот ишлаб чиқариш ва экспортни ошириш бўйича чора-тадбирлар дастурини тасдиқласин;

(б) уч ой муддатда:

(i) халқаро консултантларни жалб қилган ҳолда Енгил саноат соҳаларини 2030 йилга қадар ривожлантириш стратегиясининг асосий йўналишларини ишлаб чиқсин;

(ii) чарм-пойабзал, ипакчилик ва гиламчилик саноатини ривожлантириш бўйича қарор лойиҳаларини Вазирлар Маҳкамасига киритсин.

16. Агентлик бошқарув ходимларининг чекланган штатлари сони 60 та этиб белгилансин ҳамда мазкур штат бирликлари Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2025 йил 26 июндаги ПФ–105-сонли Фармони 7-банди ижроси доирасида қисқартирилиши белгиланган штат бирликлари ҳисобидан шакллантирилсин.

17. Белгилаб қўйилсинки:

(а) Агентлик директори Ўзбекистон Республикаси Президенти томонидан лавозимга тайинланади ва лавозимидан озод этилади;

(б) Агентлик директори, унинг биринчи ўринбосари ва ўринбосарлари

макоми, тиббий ва транспорт хизмат кўрсатиш шартлари бўйича тегишли равишда вазирнинг биринчи ўринбосари ва вазир ўринбосарига тенглаштирилади;

(в) Агентлик ходимларининг меҳнатига ҳақ тўлаш қонунчиликда белгиланган разрядларга асосан бошқарув ходимларининг лавозим маошини аниқлашда тариф коэффициентлари 1,8 барабарга оширилган ҳолда қўлланилади.

18. Иқтисодиёт ва молия вазирлиги:

(а) **икки ҳафта** муддатда Агентлик фаолиятини ташкил қилиш учун талаб қилинадиган маблағларни 2025 йил учун Ўзбекистон Республикаси Давлат бюджетининг тасдиқланган параметрлари доирасида ажратсин ҳамда Агентликнинг 2025 йилга мўлжалланган харажатлар сметасини тасдиқласин;

(б) Жамғарма маблағлари ҳисобидан Агентлик томонидан тақдим этилган ҳисоб-китобларга асосан Агентликни хизмат автомашинаси, мебель, компьютер ва бошқа зарур жиҳозлар билан таъминлаш учун маблағ ажратсин;

(в) 2026 йилдан бошлаб ҳар йили Ўзбекистон Республикаси Давлат бюджети параметрларини шакллантиришда Агентлик фаолиятини молиялаштириш учун зарур маблағларни кўзда тутсин.

19. Тошкент шаҳри Мирзо Улуғбек тумани Мустақиллик шоҳ кўчаси 109-уй манзилидаги бино моддий-техник базаси билан биргаликда Агентликка оператив бошқарув ҳукуқи асосида берилсин.

20. Миллий статистика қўмитаси ишлаб чиқаришни таҳлил қилиш ва маҳсулотлар балансини ишлаб чиқиш мақсадида корхоналар ва маҳсулотлар кесимида статистик маълумотларни Агентликка тақдим этиб борсин.

21. Ташқи ишлар вазирлиги Агентлик буюртманомаларига асосан жалб этиладиган чет эллик мутахассислар ва халқаро консультантларнинг кириш визалари консуллик ва бошқа йиғимлар ундирилмасдан белгиланган тартибда расмийлаштирилишини таъминласин.

22. Ўзбекистон Республикаси Президентининг ва Ўзбекистон Республикаси Ҳукуматининг айрим ҳужжатларига **4-иловага*** мувофиқ ўзгартириш ва қўшимчалар киритилсин.

23. Мазкур Фармоннинг ижросини самарали ташкил қилишга масъул ва шахсий жавобгар этиб Бош вазир ўринбосарлари Ж.А. Қўчқоров ҳамда Ж.А. Ходжаев белгилансин.

24. Фармон ижросини муҳокама қилиб бориш, ижро учун масъул ташкилотлар фаолиятини мувофиқлаштириш ва назорат қилиш Ўзбекистон Республикаси Бош вазири А.Н. Арипов зиммасига юклансин.

**Ўзбекистон Республикасининг
Президенти**

Ш. МИРЗИЁЕВ

Тошкент шаҳри,
2025 йил 19 сентябрь,
№ ПФ–174.

* Иловалар берилмайди.

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ПРЕЗИДЕНТИНИНГ
ФАРМОНИ**1108** Аскарлов Ахмадалини «Буюк хизматлари учун» ордени билан
мукофотлаш тўғрисида

Мамлакатимизда илм-фан соҳасини ривожлантириш, халқимизнинг илмий-интеллектуал салоҳиятини юксалтириш борасидаги кўп йиллик самарали меҳнати, хусусан, юртимиз бой тарихини ўрганиш ва тарғиб этишга қўшган катта ҳиссаси, иқтидорли олимларни тайёрлаш, ёш авлодни Ватанга муҳаббат, истиқлол ғоясига садоқат, миллий ва умуминсоний қадриятларга ҳурмат руҳида тарбиялашдаги ибратли фаолияти ҳамда таваллудининг 90 йиллиги муносабати билан Ўзбекистон миллий педагогика университети профессори, академик Аскарлов Ахмадали «Буюк хизматлари учун» ордени билан мукофотлансин.

Ўзбекистон Республикасининг
Президенти

Ш. МИРЗИЁЕВ

Тошкент шаҳри,
2025 йил 20 сентябрь,
№ ПФ–175.

2

ЎЗБЕКИСТОН RESPUBLIKASI PREZIDENTINING
ҚАРОРИ**1109** Халқаро шартномани тасдиқлаш тўғрисида

«Ўзбекистон Республикасининг халқаро шартномалари тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикаси Қонунининг 22-моддасига мувофиқ **қарор қиламан:**

1. 2025 йил 15 январь куни Абу-Даби шаҳрида Ўзбекистон Республикаси Ҳукумати билан Бирлашган Араб Амирликлари Ҳукумати ўртасида имзоланган Инвестицияларни ўзаро рағбатлантириш ва ҳимоя қилиш тўғрисидаги битим тасдиқлансин.

2. Инвестициялар, саноат ва савдо вазирлиги мазкур халқаро шартномани амалга ошириш учун масъул ваколатли орган этиб белгилансин.

3. Ташқи ишлар вазирлиги Ўзбекистон Республикаси томонидан мазкур халқаро шартноманинг кучга кириши учун зарур бўлган давлат ички тартиб-таомиллари бажарилганлиги ҳамда уни амалга оширишга масъул бўлган ваколатли орган тўғрисида Бирлашган Араб Амирликлари томонига тегишли билдиришнома юборсин.

4. Вазирлар Маҳкамаси ҳамда тегишли вазирлик ва идораларнинг раҳбарлари мазкур халқаро шартнома кучга киргандан кейин унинг қоидалари бажарилиши устидан белгиланган тартибда назоратни таъминласин.

5. Ушбу қарорнинг ижросини назорат қилиш Ўзбекистон Республикаси Бош вазири А.Н. Арипов зиммасига юклансин.

**Ўзбекистон Республикасининг
Президенти**

Ш. МИРЗИЁЕВ

Тошкент шаҳри,
2025 йил 15 сентябрь,
№ ПҚ–283.

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ПРЕЗИДЕНТИНИНГ
ҚАРОРИ

1110 Халқаро шартномани тасдиқлаш тўғрисида

«Ўзбекистон Республикасининг халқаро шартномалари тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикаси Қонунининг 22-моддасига мувофиқ қарор қиламан:

1. 2024 йил 4 июль куни Остона шаҳрида Шанхай ҳамкорлик ташкилоти Давлат раҳбарлари кенгаши йиғилишида имзоланган Шанхай ҳамкорлик ташкилотига аъзо давлатлар ҳукуматлари ўртасида атроф-муҳитни муҳофаза қилиш соҳасида ҳамкорлик тўғрисидаги битим тасдиқлансин.

2. Экология, атроф-муҳитни муҳофаза қилиш ва иқлим ўзгариши вазирлиги ушбу халқаро шартномани амалга ошириш учун масъул бўлган ваколатли орган этиб белгилансин.

3. Ташқи ишлар вазирлиги мазкур халқаро шартноманинг кучга кириши учун Ўзбекистон Республикаси томонидан зарур бўлган давлат ички тартиб-таомиллари бажарилганлиги ҳамда уни амалга ошириш учун масъул бўлган ваколатли орган тўғрисида депозитарийга тегишли билдиришнома юборсин.

4. Вазирлар Маҳкамаси ҳамда тегишли вазирлик ва идораларнинг раҳбарлари ушбу халқаро шартнома кучга кирганидан кейин унинг қоидалари белгиланган тартибда унинг қоидалари амалга оширилиши устидан назоратни таъминласин.

5. Мазкур қарорнинг ижросини назорат қилиш Ўзбекистон Республикаси Бош вазири А.Н. Арипов зиммасига юклансин.

Ўзбекистон Республикасининг
Президенти

Ш. МИРЗИЁЕВ

Тошкент шаҳри,
2025 йил 26 сентябрь,
№ ПҚ–292.

3

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY MAJLISI
QONUNCHILIK PALATASI KENGASHINING
QARORI

1111 «Xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida»gi QL–125-sonli O‘zbekiston Respublikasi qonuni loyihasi haqida

«Xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida»gi QL–125-sonli O‘zbekiston Respublikasi qonuni loyihasi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Xalqaro ishlar, mudofaa va xavfsizlik masalalari qo‘mitasining ko‘rib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Kengashi **QAROR QILADI:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining deputatlari U. Shermatov, Dj. Shirinov, S. Azimov, Z. Mavlonov, Dj. Atodjonov, K. Tojiyev tomonidan 2025-yil 19-avgustda kiritilgan «Xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida»gi QL–125-sonli O‘zbekiston Respublikasi qonuni loyihasi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi ko‘rib chiqishi uchun qabul qilinsin.

2. Ushbu Qaror qabul qilingan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

**O‘zbekiston Respublikasi
Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasining
Spikeri**

N. ISMOILOV

Toshkent shahri,
2025-yil 8-sentabr,
№ 1228–V.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY MAJLISI
QONUNCHILIK PALATASI KENGASHINING
QARORI

1112 «Xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida»gi QL–125-sonli O‘zbekiston Respublikasi qonuni loyihasi haqida

«Xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida»gi QL–125-sonli O‘zbekiston Respublikasi qonuni loyihasi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Xalqaro ishlar, mudofaa va xavfsizlik masalalari qo‘mitasining xulosasini ko‘rib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Kengashi **QAROR QILADI:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining deputatlari U. Shermatov, Dj. Shirinov, S. Azimov, Z. Mavlonov, Dj. Atodjonov, K. Tojiyev tomonidan 2025-yil 19-avgustda kiritilgan «Xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida»gi QL–125-sonli O‘zbekiston Respublikasi qonuni loyihasi birinchi o‘qishda ko‘rib chiqish uchun O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining navbatdagi majlisi kun tartibi loyihasiga kiritilsin.

2. Ushbu Qaror qabul qilingan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

O‘zbekiston Respublikasi
Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasining
Spikeri

N. ISMOILOV

Toshkent shahri,
2025-yil 8-sentabr,
№ 1229–V.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY MAJLISI
QONUNCHILIK PALATASI KENGASHINING
QARORI

1113 «O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida»gi QL–126-sonli O‘zbekiston Respublikasi qonuni loyihasi haqida

«O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida»gi QL–126-sonli O‘zbekiston Respublikasi qonuni loyihasi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Tadbirkorlik, raqobatni rivojlantirish va sanoat masalalari qo‘mitasining xulosasini ko‘rib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Kengashi **QAROR QILADI:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2025-yil 20-avgustda kiritilgan «O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida»gi QL–126-sonli O‘zbekiston Respublikasi qonuni loyihasi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi ko‘rib chiqishi uchun qabul qilinsin.

2. Ushbu Qaror qabul qilingan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

**O‘zbekiston Respublikasi
Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasining
Spikeri**

N. ISMOILOV

Toshkent shahri,
2025-yil 8-sentabr,
№ 1230–V.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY MAJLISI
QONUNCHILIK PALATASI KENGASHINING
QARORI

1114 «O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida»gi QL–126-sonli O‘zbekiston Respublikasi qonuni loyihasi haqida

«O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida»gi QL–126-sonli O‘zbekiston Respublikasi qonuni loyihasi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Tadbirkorlik, raqobatni rivojlantirish va sanoat masalalari qo‘mitasining xulosasini ko‘rib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Kengashi **QAROR QILADI:**

Oliy Majlis palatalarining Axborotnomasi, 2025-yil

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2025-yil 20-avgustda kiritilgan «O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida»gi QL–126-sonli O‘zbekiston Respublikasi qonuni loyihasi birinchi o‘qishda ko‘rib chiqish uchun O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining navbatdagi majlisi kun tartibi loyihasiga kiritilsin.

2. Ushbu Qaror qabul qilingan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

O‘zbekiston Respublikasi
Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasining
Spikeri

N. ISMOILOV

Toshkent shahri,
2025-yil 8-sentabr,
№ 1231–V.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY MAJLISI
QONUNCHILIK PALATASI KENGASHINING
QARORI

1115 «O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga nogironligi bo‘lgan bolalarga ijtimoiy xizmat va yordam ko‘rsatuvchi tadbirkorlik subyektlari faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida»gi QL–127-sonli O‘zbekiston Respublikasi qonuni loyihasi haqida

«O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga nogironligi bo‘lgan bolalarga ijtimoiy xizmat va yordam ko‘rsatuvchi tadbirkorlik subyektlari faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida»gi QL–127-sonli O‘zbekiston Respublikasi qonuni loyihasi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Fan, ta‘lim, madaniyat, sport va yoshlar masalalari qo‘mitasining xulosasini ko‘rib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Kengashi **QAROR QILADI:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2025-yil 20-avgustda kiritilgan «O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga nogironligi bo‘lgan bolalarga ijtimoiy xizmat va yordam ko‘rsatuvchi tadbirkorlik subyektlari faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida»gi QL–127-sonli O‘zbekiston Respublikasi qonuni loyihasi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi ko‘rib chiqishi uchun qabul qilinsin.

2. Ushbu Qaror qabul qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

O'zbekiston Respublikasi
Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasining
Spikeri

N. ISMOILOV

Toshkent shahri,
2025-yil 8-sentabr,
№ 1232–V.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY MAJLISI
QONUNCHILIK PALATASI KENGASHINING
QARORI

1116 «O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga nogironligi bo'lgan bolalarga ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatuvchi tadbirkorlik subyektlari faoliyatini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan o'zgartirishlar kiritish to'g'risida»gi QL–127-sonli O'zbekiston Respublikasi qonuni loyihasi haqida

«O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga nogironligi bo'lgan bolalarga ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatuvchi tadbirkorlik subyektlari faoliyatini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan o'zgartirishlar kiritish to'g'risida»gi QL–127-sonli O'zbekiston Respublikasi qonuni loyihasi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Fan, ta'lim, madaniyat, sport va yoshlar masalalari qo'mitasining xulosasini ko'rib chiqib, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Kengashi **QAROR QILADI:**

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2025-yil 20-avgustda kiritilgan «O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga nogironligi bo'lgan bolalarga ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatuvchi tadbirkorlik subyektlari faoliyatini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan o'zgartirishlar kiritish to'g'risida»gi QL–127-sonli O'zbekiston Respublikasi qonuni loyihasi birinchi o'qishda ko'rib chiqish uchun O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining navbatdagi majlisi kun tartibi loyihasiga kiritilsin.

2. Ushbu Qaror qabul qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

O'zbekiston Respublikasi
Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasining
Spikeri

N. ISMOILOV

Toshkent shahri,
2025-yil 8-sentabr,
№ 1233–V.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY MAJLISI
QONUNCHILIK PALATASI KENGASHINING
QARORI

1117 «O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga shaxslarning tasvirga bo‘lgan huquqlari himoyasini kuchaytirishga qaratilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida»gi QL–128-sonli O‘zbekiston Respublikasi qonuni loyihasi haqida

«O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga shaxslarning tasvirga bo‘lgan huquqlari himoyasini kuchaytirishga qaratilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida»gi QL–128-sonli O‘zbekiston Respublikasi qonuni loyihasi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Innovatsion rivojlanish va axborot texnologiyalari masalalari qo‘mitasining xulosasini ko‘rib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Kengashi **QAROR QILADI:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2025-yil 27-avgustda kiritilgan «O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga shaxslarning tasvirga bo‘lgan huquqlari himoyasini kuchaytirishga qaratilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida»gi QL–128-sonli O‘zbekiston Respublikasi qonuni loyihasi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi ko‘rib chiqishi uchun qabul qilinsin.

2. Ushbu Qaror qabul qilingan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

**O‘zbekiston Respublikasi
Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasining
Spikeri**

N. ISMOILOV

Toshkent shahri,
2025-yil 8-sentabr,
№ 1234–V.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY MAJLISI
QONUNCHILIK PALATASI KENGASHINING
QARORI

1118 «O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga shaxslarning tasvirga bo‘lgan huquqlari himoyasini kuchaytirishga qaratilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida»gi QL–128-sonli O‘zbekiston Respublikasi qonuni loyihasi haqida

«O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga shaxslarning tasvirga bo‘lgan huquqlari himoyasini kuchaytirishga qaratilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida»gi QL–128-sonli O‘zbekiston Respublikasi qonuni loyihasi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Innovatsion rivojlanish va axborot texnologiyalari masalalari qo‘mitasining xulosasini ko‘rib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Kengashi **QAROR QILADI**:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2025-yil 27-avgustda kiritilgan «O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga shaxslarning tasvirga bo‘lgan huquqlari himoyasini kuchaytirishga qaratilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida»gi QL–128-sonli O‘zbekiston Respublikasi qonuni loyihasi birinchi o‘qishda ko‘rib chiqish uchun O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining navbatdagi majlisi kun tartibi loyihasiga kiritilsin.

2. Ushbu Qaror qabul qilingan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

**O‘zbekiston Respublikasi
Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasining
Spikeri**

N. ISMOILOV

Toshkent shahri,
2025-yil 8-sentabr,
№ 1235–V.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY MAJLISI
QONUNCHILIK PALATASI KENGASHINING
QARORI

1119 «O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksiga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida»gi QL–129-sonli O‘zbekiston Respublikasi qonuni loyihasi haqida

«O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksiga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida»gi QL–129-sonli O‘zbekiston Respublikasi qonuni loyihasi bo‘yicha

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Mehnat, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy masalalar qo‘mitasining xulosasini ko‘rib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Kengashi **QAROR QILADI:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining deputatlari J. Achilov, D. Mamadjanova, A. Nurmatov va M. Urazaliyeva tomonidan 2025-yil 5-sentabrda kiritilgan «O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksiga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida»gi QL–129-sonli O‘zbekiston Respublikasi qonuni loyihasi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi ko‘rib chiqishi uchun qabul qilinsin.

2. Ushbu Qaror qabul qilingan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

**O‘zbekiston Respublikasi
Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasining
Spikeri**

N. ISMOILOV

Toshkent shahri,
2025-yil 8-sentabr,
№ 1236–V.

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY MAJLISI
QONUNCHILIK PALATASI KENGASHINING
QARORI**

1120 «O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksiga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida»gi QL–129-sonli O‘zbekiston Respublikasi qonuni loyihasi haqida

«O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksiga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida»gi QL–129-sonli O‘zbekiston Respublikasi qonuni loyihasi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Mehnat, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy masalalar qo‘mitasining xulosasini ko‘rib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Kengashi **QAROR QILADI:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining deputatlari J. Achilov, D. Mamadjanova, A. Nurmatov va M. Urazaliyeva tomonidan 2025-yil 5-sentabrda kiritilgan «O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksiga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida»gi QL–129-sonli O‘zbekiston Respublikasi qonuni loyihasi birinchi o‘qishda ko‘rib chiqish uchun O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining navbatdagi majlisi kun tartibi loyihasiga kiritilsin.

2. Ushbu Qaror qabul qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

O'zbekiston Respublikasi
Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasining
Spikeri

N. ISMOILOV

Toshkent shahri,
2025-yil 8-sentabr,
№ 1237–V.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY MAJLISI
QONUNCHILIK PALATASI KENGASHINING
QARORI

1121 «Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi
qonuni loyihasi haqida

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Kengashi
QAROR QILADI:

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi tomonidan 2025-yil 15-aprelda ikkinchi o'qish tartib-taomiliga qaytarilgan «Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuni loyihasini ikkinchi o'qishda ko'rib chiqishga doir O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Korrupsiyaga qarshi kurashish va sud-huquq masalalari qo'mitasining taklifi ma'qullansin.

2. Mazkur qonun loyihasi ikkinchi o'qishda ko'rib chiqish uchun O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining navbatdagi majlisi kun tartibi loyihasiga kiritilsin.

3. Ushbu Qaror qabul qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

O'zbekiston Respublikasi
Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasining
Spikeri

N. ISMOILOV

Toshkent shahri,
2025-yil 8-sentabr,
№ 1238–V.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY MAJLISI
QONUNCHILIK PALATASI KENGASHINING
QARORI

1122 «Shaharsozlik renovatsiyasi to‘g‘risida»gi QL–109-sonli
O‘zbekiston Respublikasi qonuni loyihasi haqida

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Kengashi
QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi tomonidan 2025-yil 5-avgustda birinchi o‘qishda qabul qilingan «Shaharsozlik renovatsiyasi to‘g‘risida»gi QL–109-sonli O‘zbekiston Respublikasi qonuni loyihasini ikkinchi o‘qishda ko‘rib chiqishga doir O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Tadbirkorlik, raqobatni rivojlantirish va sanoat masalalari qo‘mitasining taklifi ma‘qullansin.

2. Mazkur qonun loyihasi ikkinchi o‘qishda ko‘rib chiqish uchun O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining navbatdagi majlisi kun tartibi loyihasiga kiritilsin.

3. Ushbu Qaror qabul qilingan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

**O‘zbekiston Respublikasi
Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasining
Spikeri**

N. ISMOILOV

Toshkent shahri,
2025-yil 8-sentabr,
№ 1239–V.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY MAJLISI
QONUNCHILIK PALATASI KENGASHINING
QARORI

1123 «Mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyati takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida»gi QL–115-sonli O‘zbekiston Respublikasi qonuni loyihasi haqida («Mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyati takomillashtirilganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida»)

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Kengashi
QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi tomonidan 2025-yil 29-iyulda birinchi o‘qishda qabul qilingan «Mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyati takomillashtirilganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida»gi QL–115-sonli O‘zbekiston Respublikasi qonuni loyihasini «Mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyati takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida» degan yangi nom bilan ikkinchi o‘qishda ko‘rib chiqishga doir O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Demokratik institutlar va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish masalalari qo‘mitasining taklifi ma’qullansin.

2. Mazkur qonun loyihasi ikkinchi o‘qishda ko‘rib chiqish uchun O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining navbatdagi majlisi kun tartibi loyihasiga kiritilsin.

3. Ushbu Qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

**O‘zbekiston Respublikasi
Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasining
Spikeri**

N. ISMOILOV

Toshkent shahri,
2025-yil 8-sentabr,
№ 1240–V.

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY MAJLISI
QONUNCHILIK PALATASI KENGASHINING
QARORI**

1124 «Sug‘urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar belgilanganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida»gi QL–121-sonli O‘zbekiston Respublikasi qonuni loyihasi haqida

**O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Kengashi
QAROR QILADI:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi tomonidan 2025-yil 12-avgustda birinchi o‘qishda qabul qilingan «Sug‘urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar belgilanganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida»gi QL–121-sonli O‘zbekiston Respublikasi qonuni loyihasini ikkinchi o‘qishda ko‘rib chiqishga doir O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Budget va iqtisodiy masalalar qo‘mitasining taklifi ma’qullansin.

2. Mazkur qonun loyihasi ikkinchi o'qishda ko'rib chiqish uchun O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining navbatdagi majlisi kun tartibi loyihasiga kiritilsin.

3. Ushbu Qaror qabul qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

**O'zbekiston Respublikasi
Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasining
Spikeri**

N. ISMOILOV

Toshkent shahri,
2025-yil 8-sentabr,
№ 1241–V.

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY MAJLISI
QONUNCHILIK PALATASI KENGASHINING
QARORI**

1125 «Atom energiyasidan tinchlik maqsadlarida foydalanish to'g'ri-sida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartirishlar va qo'shimcha kiritish haqida»gi QL–124-sonli O'zbekiston Respublikasi qonuni loyihasi to'g'risida («Atom energiyasi sohasidagi munosabatlar yanada takomillashtirilishi munosabati bilan «Atom energiyasidan tinchlik maqsadlarida foydalanish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida»)

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Kengashi
QAROR QILADI:

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi tomonidan 2025-yil 19-avgustda birinchi o'qishda qabul qilingan «Atom energiyasi sohasidagi munosabatlar yanada takomillashtirilishi munosabati bilan «Atom energiyasidan tinchlik maqsadlarida foydalanish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida»gi QL–124-sonli O'zbekiston Respublikasi qonuni loyihasini «Atom energiyasidan tinchlik maqsadlarida foydalanish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartirishlar va qo'shimcha kiritish haqida» degan yangi nom bilan ikkinchi o'qishda ko'rib chiqishga doir O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Tadbirkorlik, raqobatni rivojlantirish va sanoat masalalari qo'mitasining taklifi ma'qullansin.

2. Mazkur qonun loyihasi ikkinchi o'qishda ko'rib chiqish uchun O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining navbatdagi majlisi kun tartibi loyihasiga kiritilsin.

3. Ushbu Qaror qabul qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

**O'zbekiston Respublikasi
Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasining
Spikeri**

N. ISMOILOV

Toshkent shahri,
2025-yil 8-sentabr,
№ 1242–V.

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY MAJLISI
QONUNCHILIK PALATASI KENGASHINING
QARORI**

**1126 «O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga
o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi O'zbekiston
Respublikasi qonuni loyihasi haqida**

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Kengashi
QAROR QILADI:

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Budget va iqtisodiy masalalar qo'mitasi «Sug'urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar belgilanganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi QL–121-sonli O'zbekiston Respublikasi qonuni loyihasini hamda «Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga elektron tijorat sohasini takomillashtirishga qaratilgan qo'shimchalar kiritish haqida»gi QL–122-sonli O'zbekiston Respublikasi qonuni loyihasini «O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida» degan yangi nom bilan bitta qonun loyihasiga birlashtirsin.

2. Mazkur qonun loyihasi ko'rib chiqish uchun O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining navbatdagi majlisi kun tartibi loyihasiga kiritilsin.

3. Ushbu Qaror qabul qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

**O'zbekiston Respublikasi
Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasining
Spikeri**

N. ISMOILOV

Toshkent shahri,
2025-yil 8-sentabr,
№ 1243–V.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY MAJLISI
QONUNCHILIK PALATASI KENGASHINING
QARORI

1127 «O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni loyihasi haqida

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Kengashi **QAROR QILADI:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Fan, ta’lim, madaniyat, sport va yoshlar masalalari qo‘mitasi «Aholi bandligi to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish haqida»gi QL–116-sonli O‘zbekiston Respublikasi qonuni loyihasini, «O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida»gi QL–126-sonli O‘zbekiston Respublikasi qonuni loyihasini hamda «O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga nogironligi bo‘lgan bolalarga ijtimoiy xizmat va yordam ko‘rsatuvchi tadbirkorlik subyektlari faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida»gi QL–127-sonli O‘zbekiston Respublikasi qonuni loyihasini «O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida» degan yangi nom bilan bitta qonun loyihasiga birlashtirsin.

2. Mazkur qonun loyihasi ko‘rib chiqish uchun O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining navbatdagi majlisi kun tartibi loyihasiga kiritilsin.

3. Ushbu Qaror qabul qilingan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

**O‘zbekiston Respublikasi
Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasining
Spikeri**

N. ISMOILOV

Toshkent shahri,
2025-yil 8-sentabr,
№ 1244–V.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY MAJLISI
QONUNCHILIK PALATASI KENGASHINING
QARORI

1128 «Fuqarolarning mehnat huquqlari kafolatlari kuchaytirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida»gi QT–2-sonli qonunchilik taklifi haqida

«Fuqarolarning mehnat huquqlari kafolatlari kuchaytirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida»gi QT–2-sonli qonunchilik taklifi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Korruptsiyaga qarshi kurashish va sud-huquq masalalari qo‘mitasining xulosasini ko‘rib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Kengashi **QAROR QILADI:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tomonidan 2025-yil 4-sentabrda qonunchilik tashabbusi tartibida kiritilgan «Fuqarolarning mehnat huquqlari kafolatlari kuchaytirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida»gi QT–2-sonli qonunchilik taklifining matni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tomonidan 2025-yil 8-sentabrda o‘zgartirilib, qayta kiritilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Ushbu qonunchilik taklifi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi ko‘rib chiqishi uchun qabul qilinsin.

3. Ushbu Qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

**O‘zbekiston Respublikasi
Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasining
Spikeri**

N. ISMOILOV

Toshkent shahri,
2025-yil 8-sentabr,
№ 1245–V.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY MAJLISI
QONUNCHILIK PALATASI KENGASHINING
QARORI

1129 «Fuqarolarning mehnat huquqlari kafolatlari kuchaytirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida»gi QT–2-sonli qonunchilik taklifi haqida

«Fuqarolarning mehnat huquqlari kafolatlari kuchaytirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida»gi QT–2-sonli qonunchilik taklifi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Korruptsiyaga qarshi kurashish va sud-huquq masalalari qo‘mitasining xulosasini ko‘rib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Kengashi **QAROR QILADI:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisning Senati tomonidan 2025-yil 4-sentabrda qonunchilik tashabbusi tartibida kiritilgan «Fuqarolarning mehnat huquqlari kafolatlari kuchaytirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida»gi QT–2-sonli qonunchilik taklifi ko‘rib chiqish uchun O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining navbatdagi majlisi kun tartibi loyihasiga kiritilsin.

2. Ushbu Qaror qabul qilingan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

**O‘zbekiston Respublikasi
Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasining
Spikeri**

N. ISMOILOV

Toshkent shahri,
2025-yil 8-sentabr,
№ 1246–V.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY MAJLISI
QONUNCHILIK PALATASI KENGASHINING
QARORI

1130 O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining navbatdagi majlisini o‘tkazish to‘g‘risida

«O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy Qonunining 16-moddasiga, «O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Reglamenti to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 10-moddasiga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Kengashi **QAROR QILADI:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining navbatdagi majlisi 2025-yil 9-sentabr kuni o‘tkazilishi belgilansin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi majlisining kun tartibi loyihasiga quyidagi masalalar kiritilsin:

O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjetining va davlat maqsadli jamg‘armalari budjetlarining 2025-yil birinchi yarim yilligidagi ijrosi to‘g‘risida;

«Ma‘muriy tartib-taomillar to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni loyihasi haqida (ikkinchi o‘qish);

«Shaharsozlik renovatsiyasi to‘g‘risida»gi QL–109-sonli O‘zbekiston Respublikasi qonuni loyihasi haqida (ikkinchi o‘qish);

«Mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyati takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida»gi QL–115-sonli O‘zbekiston Respublikasi qonuni loyihasi haqida («Mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyati takomillashtirilganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida») (ikkinchi o‘qish);

«Sug‘urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar belgilanganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida»gi QL–121-sonli O‘zbekiston Respublikasi qonuni loyihasi haqida (ikkinchi o‘qish);

QL–121 va QL–122-sonli O‘zbekiston Respublikasi qonunlari loyihalarini birlashtirish to‘g‘risida;

«O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni haqida;

«Atom energiyasidan tinchlik maqsadlarida foydalanish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga o‘zgartirishlar va qo‘shimcha kiritish haqida»gi QL–124-sonli O‘zbekiston Respublikasi qonuni loyihasi to‘g‘risida («Atom energiyasi sohasidagi munosabatlar yanada takomillashtirilishi munosabati bilan «Atom energiyasidan tinchlik maqsadlarida foydalanish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida») (ikkinchi o‘qish);

«Xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida»gi QL–125-sonli

O‘zbekiston Respublikasi qonuni loyihasi haqida (birinchi o‘qish);

«O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida»gi QL–126-sonli O‘zbekiston Respublikasi qonuni loyihasi haqida (birinchi o‘qish);

